



Elyorbek ABDULXAYEV,  
Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti assistenti  
E-mail:elyorbekabdulxayev@gmail.com.

AIQI dotsenti, PhD A.Xakimov taqrizi asosida

## FACTORS LEADING TO THE EMERGENCE AND DEVELOPMENT OF THE JADID MOVEMENT IN TURKESTAN

### Annotation

This article talks about the emergence of the jadidism movement, the history of the formation of jadidism in The country of Turkestan, the activities of the jadidists from Turkestan, uprisings, efforts to change the worldview of the population, and the importance of studying the jadidism movement in the context of today's globalization.

**Key words:** Jadidism, modernism, patriotism, enlightenment, science, secular education, theater, press, independence.

## ФАКТОРЫ ВОЗНИКНОВЕНИЯ И ФОРМИРОВАНИЯ ДВИЖЕНИЯ ДЖАДИДИЗМА В ТУРКИСТАНСКОМ КРАЕ

### Аннотация

В данной статье говорится о возникновении движения джадидизма, истории формирования джадидизма в Туркестанском крае, деятельности туркестанских джадидов, восстаниях, усилиях по изменению мировоззрения населения, а также о важности изучения движения джадидизма в Туркестанском крае в условиях сегодняшней глобализации

**Ключевые слова:** Джадидизм, джадиды, патриотизм, просвещение, наука, светское образование, театр, пресса, независимость.

## TURKSITON O'LKASIDA JADIDCHILIK HARAKATINING VUJUDGA KELISH VA SHAKLLANISH OMILLARI

### Annotatsiya

Ushbu maqolada jadidchilik harakati paydo bo'lishi, bu harakat Turkiston o'lkasida ham jadidchilik shakllanish tarixi, Turkistonlik jadidlarning faoliyati, qo'zg'alolnlar, aholi dunyoqarashini o'zgartirishga qilgan harakatlar va jadidchilik harakatini bugungi globallashuv sharoitida o'rghanish muhumligi haqida gap boradi.

**Kalit so'zlar:** Jadidchilik, jadidlar, vatanparvarlik, ma'rifatparvarlik, ilm, dunyoviy ta'lif, teatr, matbuot, mustaqillik.

**Kirish.** Bugungi globallashuv jarayonida rivojlangan davlatlardan kirib kelayotgan ilmiy-texnikaviy, madaniy yangiliklar hamda mafkuraviy g'oyalari musulmon mamlakatlari tomonidan turlicha kutib olinmoqda. Bu boradagi fikrlar va qarashlar xilma-xilligi esa manfaatlar to'qnashuviga sabab bo'lmoqda. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ham islom dunyosi mamlakatlarda bu murakkab holat mayjud bo'lib, manashu davrda Turkiston o'lkasida jadidchilik harakati vujudga keldi va ko'plab jadidlar qatag'on siyosati qurboni bo'lishdi.

O'zbekiston tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak demokratiyalash, milliy mustaqillik uchun kurash jarayonlari jadidchilik bilan chambarchas aloqadordir. Ular o'z asarlarida boy tariximizni, ta'lif-tarbiyani isloh qilish masalalarini dadillik va kuyinchaklik bilan ilgari surdilar va xalqimizni jaholatga botmasligi yo'llarini topishga harakat qildilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga yo'lagan murojaatnomasida shunday deyilgan: "Biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rghanishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz. Bu bebafo boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi".

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida bir qator Sharq va musulmon mamlakatlarda vujudga kelgan jadidchilik harakati Turkiston o'lkasida teran tarixiy ildizlarga ega. Mamlakatimiz

ulkan ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy ahamiyatga ega bu jarayonlardan chetda qolmagan, aksincha bu harakatning markazlaridan biriga aylangan. Jadidlarning milliy davlatchilikka qo'shgan hissasini o'rghanish dolzarb hisoblanadi.

"Afsuski,-deb ko'rsatadi Sh.M.Mirziyoyev,-mustabid tuzum ularning ezgu g'oya va amaliy harakatlarini to'la ro'yobga chiqarish imkon bermadi. Biz bugun mamlakatimizda erkin fuqarolik jamiyatni, huquqiy demokratik davlat barpo etar ekanmiz, jadid bobolarimizning gumanistik qarashlariga tayanamiz, ularning merosidan ma'naviy kuch-quvvat olamiz" [1].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Turkiston o'lkasida jadidchilik harakatining vujudga kelishi va ularning faoliyati bilan bog'liq masalalar hamma davrda ham dolzarb bo'lib kelganligi uchun qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Mavzuga doir adabiyotlarni quyidagi guruhlarga bo'lib o'rghanish mumkin:

1. Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davrida yaratilgan tadqiqotlar.

2. Sovet davrida yaratilgan ilmiy adabiyotlar.

3. Mustaqillik yillarda O'zbekistonda nashr qilingan tadqiqotlar.

4. Xorijda yaratilgan tadqiqotlar.

Jadidchilik harakati jarayonlari - paydo bo'lish tarixi, ularning jamiyat rivojlanishidagi o'rni va ahamiyatini tadqiq etish tarix fanining eng dolzarb masalalari qatoriga kiradi. Ma'lumki, jadidchilik harakati paydo bo'lishi e'tiboran jamiyat uchun alohida o'r'in egalladi. Jadidchilik harakati o'z

tarixida ikki bosqichdan tashkil topgan. Birinchi bosqich – ma'rifatchilik bosqichi, ikkinchi bosqich – siyosiy bosqich. Bunday ulug'vor harakat tarixini podsho Rossiysi va sovet hokimiyati yillarda xolisona tadqiq etish, jadidchilikni butun bo'y-basti bilan o'rganish va targ'ib qilish niyoyatda qiyin va mushkul vaziyat edi.

Turkiston o'lkasidagi jadidchilik harakatini yangicha, ijobiyo yo'sunda takqin etishga bag'ishlangan qator maqolalar e'lon qilingan. "Dukchi Eshon voqeasi" dan so'ng ("Sharq yulduzi", 1991. №6); "Jadidchilik:haqiqat va uydurma" ("Muloqot", 1991. №11-12); "Erkka chorlagan erksizlik" (Sharq yulduzi, 1992. №3); "Bosmachilik haqida o'ylar" ("Muloqot", 1993. №5-18). 1993-yil R.Shamsutdinov, B.Rasulov, va S.A.Xoshimovlar ham muallifliddagi. "Istiqlol uchun kurash fidoyilar" (Jadidchilik va bosmachilik tarixiga doir) nomli risolasi e'lon qilingan. [2. B – 6].

1937-1938 yillardagi "Katta terror" davrida jadidlarni tergov qilish jarayonida ham jadidchilik va uning ijtimoiy-siyosiy tashkilotlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

#### Mustaqillik

yillarda A.Fitrat, A.Cho'lpox, A.Avloniyning 2 jildli, Behbudiy, A.Qodiriy, Sidqiy Xondayliqiy, Ibrat, Ajziy, So'fizodaning 1 jildli, shuningdek, Fayzulla Xo'jayev, Munavvarqori, Polvonniyoz hoji Yusupovning asarlari chop qilindi. Jadidlarning 20 ta mashhur vakili kiritilgan "Unutilmas siymolar. Jadidchilik harakatining namoyandalar" (Toshkent, 1999) albom-kitobi nashrдан chiqdi. Ularning faoliyatini darslik va qo'llanmalarga kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan "Jadidlar" (Toshkent, 2022) to'plami nashr qilindi hamda "Jadid" Adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazetasi 2024-yildan chop etila boshladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqola tarixiylik tamoyili, xronologik va qiyosiy tahlil hamda muammoga tizimli yondashuv tamoyili tashkil etadi. Bu tamoyillar XIX asr oxiri XX asr birinchi yarmi davridagi Turkiston diyori tarixiy o'zgarishlar bilan o'zaro bog'liqliklarni hisobga olgan holda tahlil etishni o'z ichiga oladi va tarixiy jarayonni real va izhil yoritish imkonini beradi. Ayni paytda tadqiqot tarixiy voqelikni o'rganishning muammoli-xronologik usuliga asoslanadi. Bu esa ma'lum bir tarixiy davring boshida va oxiridagi jarayonlar va xodisalarning xususiyatlari va farqli jihatlarini solishtirish, shuningdek, amaliy harakatlar oqibatlarini kuzatish imkonini beradi.

**Tahsil va natijalar.** Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyo hududidagi xonliklarining bosit olinishi ushbu hududning tanazzulga yuz tutishiga, dunyoning rivojlangan mamlakatlaridan ko'plab sohalarda ortda qolishiga hamda milliy qadriyatlarimizning qadrsizlanishiga olib keldi.

O'rta Osiyoga nisbatan Rossiya imperiyasining harbiy jihatdan ustunligi mahalliy aholining ochiqdan ochiq kurash olib borishiga imkon bermadi. Shuning uchun ham Vatan, millat, xalq qayg'usini tushungan kishilar, ayniqsa, ziyorolar xalqni ozodlikka eltvuchi yo'l bu — xalqni ma'rifatli qilish deb bildi. Ular xalqni ma'rifatli qilmasdan turib, mustaqillikni qo'lg'a kiritib bo'lmaydi deb hisoblashgan. Ziyorolar xalq orasida ilg'or g'oyalarni tarqatishda maorif tizimini asosiy vosita deb bilishdi. O'lsa milliy ziyorolarining jamiyatni yangilashga va isloh qilishga qaratilgan harakati jadidchilik nomi bilan maydonga chiqdi.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Turkistonda ma'rifatparvarlik harakati vujudga keldi. Jadidchilik harakati vujudga kelishining tarixiy shart-sharoitlari XIX asr oxiri –

XX asrning boshlarida Turkiston o'lkasi farzadlarini yuksak fazilatli insonlari etib tarbiyalash o'sha davr ma'rifatparvarlarining hayotiy va fuqarolik e'tiqodiga aylandi. Jadidchilik harakatining vujudga kelishi va shakllanishida ichki omillaridan tashqi omillar ham mavjud edi.

O'sha davring taraqqiyarvar hamda vatanparvar kuchlari xalqning umumjahon taraqqiyotidan ortda qolayotganligini qalban his qilib, jamiyatni isloh etish kerakligini anglaganlar. Jadidchilik mohiyati e'tibori bilan avvalo siyosiy harakat edi. Jadidchilikning shakllanishi va mag'lubiyatga uchrashtirish davrlari bo'lib, ushbu harakatlarini shartli ravishda 4 davrga ajratish mumkin.

1898-1905-yillar;

1906-1917-yillar;

1917-1920-yillar;

1921-1929-yillar;

Jadidlar orasida yetuk olimlar, sanoat va ziroatchilik sohalarining zamoniaviy bilmdon mutaxasislari, madaniyat arboblari ham bor edi. Ular yurtni obod va Vatanni mustaqil ko'rishni orzu qildilar hamda ushbu mashaqqadli yo'lda fidoyilaracha kurash olib bordilar.

Ushbu orzu va maqsadlar "Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Hamza Hakmzoda, Munavvarqori, Abdurauf Fitrat, Abdulxamid Cho'lpox, Abdulla Qodiriy va Usmon Nosir kabi minglab jadid bobolarimizni uyg'otdi. Ularning xalq erkinligi va soadati yo'lidagi ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amallari uchun ulkan ma'naviy omil bo'ldi". [3. B – 18].

Ziyorolar jamiyatagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilish yo'llarini topishga harakat qiladi. Huddi shunday jarayon XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi tarkibiga kirgan Qrim, Kavkazorti, Turkiston, protektoratga aylanriligil Buxoro amirligi va Xiva xonligida ham ro'y berdi. XIX asrning ikkinchi yarmida mustamlaka zulmi ostidagi ziyorolar o'z xalqlarini ma'rifatli qilish va ularning taraqqiyot darajasini ko'tarishga qaratilgan harakatlarini boshladi.

Turkiston o'lkasida jadidchilik shakllanib kelayotgan milliy burjuaziya muhitida vujudga kelgan. Jadidchilik harakati namoyondalari ko'pincha o'zlarini taraqqiyarvar, keyinchalik jadidlar deb nomlashgan. Toshkent, Buxoro, Samarqand, Farg'on va Xivada hur fikrli va taraqqiyarvar kishilarning ayrim guruhlari tomonidan ochilgan ma'daniy-ma'rifiy yo'nalishdagi jamiyat va uyushmalardan jadidchilik harakati shakllandi. U o'sha davrda Turkistondagi milliy-ozodlik harakatining mafkurasi-Turkiston milliy mustaqillik mafkurasi vazifasini bajardi. Jadid ma'rifatparvarlarining davlatchilik masalasiga nisbat qarashlari dastlabki davrdanoq shakllangan edi.

Jadidchilik harakati o'z asosiy g'oya va maqsadlariga ega edi. Quyida ushbu harakatning asosiy g'oya va maqsadlarini bilishimiz mumkin.

Turkiston o'lkasini o'rta asrchilik, feudal qoloqlik, xurofotlardan ozod qilish;

"Usuli qadim" ni inkor etgan holda o'lkani, xalqni, millatni zamoniaviy mutarraqiy yo'lg'a olib chiqish;

Milliy davlat bunyod etish;

Konstitutsion parlapent va president idora usulidagi ozod va farovon jamiyat qurish;

Turkiy tillarga davlat tili maqomini berish;

Milliy pul birligi va milliy qo'shin tuzish;

O'rta Osiyodagi milliy taraqqiyarvarlik harakati hududiy xususiyatlari ko'ra Turkiston, Buxoro va Xiva jadidlariga bo'linadi.

Nº	Jadidchilikning mintaqaviy-hududiy va tarixiy shakllari	Yetakchilar
1	Turkiston	Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy va boshqalar
2	Buxoro	"Yosh buxoroliklar" hukumatি, Abdulvohid Burxonov, Mukomil Burxonov, Sadreddin Ayniy, Usmon Xo'ja, Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo'jayev va boshqalar

Turkiston jadidchiligining asosiy tarkibini ziyojolar tashkil qilib, ular Rossiya imperiyasi mustamlakachilik siyosatiga qarshi kurashning oldingi saflarida turishdi. Ular podsho hukumatining xomashyo manbayiga aylantirilgan Turkistonning kelajagini mustaqil, rivojlangan davlat sifatida ko'rishni orzu qilishgan. XX asrning boshlarida shakllangan taraqqiyatparvarlik kuchlari davlatning boshqaruvi tizimi zamон talablariga javob bermasligini, xalqning turmush darajasi past ekanini va uni o'zgartirish lozimligini chuqur anglatdi. Buxoro milliy ziyojolarining harakati Turkiston o'lkasiga nisbatan og'ir ijtimoiy-siyosiy sharoitda yuzaga keldi. Uning tarkibi, asosan, mayda do'kondorlar, o'qituvchilar, hunarmandlar, savdogarlardan iborat edi.

Turkiston zamini Rossiyadan keltirilgan tayyor sanoat mollari bilan to'ldirilib, rus hukumati va firmalari undan ham mo'may daromadlarni qo'lga kirtildilar. Umuman aytganda, rus davlati yarim asrlik vaqt ichida mahalliy xalqlarning boyliklarini imkonli boricha o'zlashtirishda hech narsadan toymadi. "Ellik yildan beri," — deb yozgan edi Fitrat: "ezildik, tahqir etildik. Qo'limiz bog'landi, tilimiz kesildi, og'zimiz boylandi, yerimiz bosildi, molimiz talandi, sharafimiz yemirildi, nomusimiz kasb qilindi. Insoniyigimiz oyoq osti qilindi. Tizimli turdik, sabr etdik. Kuchga tayangan har bir buyruqqa, butun borlig'imizni berdik" [4].

"Tarixdan shu narsa ma'lumki, har bir kichik harakat ertangi katta harakatning zamini vazifasini o'taydi. Bu kungi mag'lubiyat ertangi g'alabaning amalga oshuvida ozmi-ko'pmi rol o'ynaydi. Busiz jamiyat rivojini tasavvur etish qiyin." [5].

Turkiston o'lkasida millat istiqbolini o'ylovchi taraqqiyatparvar kuchlar xalqning deyarli barcha tabaqalari — hunarmand, dehqon, savdogar, mulkdor, ulamolar orasida

mavjud edi. Jadidchilik g'oyalarining keng yoyilishida "Tarjimon" gazetasi muhim o'rinn tutdi. Ismoil Gaspiralining 1893-yilda Toshkent, Samarqand va Buxoroga tashrifni ma'rifatparvarlik g'oyalarining keyingi rivojiga turtki bo'ldi. 1893-yilda Buxoro amirligida birinchi yangi usul maktabi faoliyat ko'rsata boshladi. Keyinchalik bunday maktablar boshqa hududlarda ham keng tarqaldi. O'rta Osiyo jadidlari ma'rifatparvarlik yo'lida qrim ziyojilari tajribalarini o'rganish bilan birga boshqa mamlakatlardagi taraqqiyatparvarlarning ilg'or g'oyalaridan ham foydalandi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkunki, Sovet davrida yozilgan adabiyotlarda jadidchilikka „burjua-liberal harakat“ deb ta'rif berilgan. SSR parchalanib ketganidan keyin jadidchilik harakati va uning namoyandalari nomi qayta tiklandi. Tarixchi, adabiyotshunos, tilshunos, faylasuf, huquqshunos, san'atshunos va pedagog olimlar jadidlarning ilmiy va adabiy merosini o'rganishda dastlabki natijalarni qo'lga kiritishdi.

Jadidlar millatning turmush tarzini o'zgartirishning eng asosiy yo'li xalqni uyg'otish, uni ma'rifatli qilish, ta'limni isloh qilishni hayot va mamot yo'li deb bildilar. Ular bosib o'tgan yo'l bugun ham biz uchun ibrat yo'lidir. Men o'yaymanki, jadidlar faoliyatini katta-katta tadqiqotlarga arziydi. Ularning har birini ilmiy o'rganish bizga ko'p narsalarni beradi.

Jadidlar haqida va ularning faoliyatları haqida ko'plab o'quv adabiyotlari hamda maktablarda va oliy o'quv yurtlari darsliklar chiqarilishi taklif qilgan bo'lar edim. Bundan tashqari jadidlar faoliyatini o'rganish uchun kinofilm, videoroliklar ham ichlab chiqarilsa maqsadga muofiq bo'lar edi.

## ADABIYOTLAR

1. Jadid: Adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta. 2024-yil 1-yanvar, № 1(1).
2. Shamsutdinov R., S.Xoshimov, N.Akbarova O'rta osiyodagi jadidchilik harakati tarixidan. – Toshkent: Akademnashr 2024.- В 6.
3. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2021. – Б 18.
4. "Шарқ юлдузи", 1992, № 10 - сон. В-8.
5. To'lak I.. XX asr o'zbek adabiyoti . "Andijon", 1993. – В. 4.
6. Sharipov R. Turkiston jadidchilik harakati tarixidan. . – T: O'qituvchi, 2002
7. Alimova D.Jadidchilik fenomeni. – Toshkent: Akademnashr, 2022



*Akbar ATAMUXAMMEDOV,  
O'zbekiston Milliy universiteti tadqiqotchisi*

*O'zDJTU professori D. Bobojonova taqrizi asosida*

## XX ASR BOSHLARIDA SOVET HUKUMATI BAYRAMLARINING SHAKLLANISHI HAQIDA BA'ZI MULOHAZALAR

Annotatsiya

Sovet davlati hukmronligining dastlabki yillaridan kishilarni sovet mafkurasi asosida tarbiyalash maqsadida ming yillar mobaynida shakllangan milliy axloqiy qadriyatlarni yo'q qilinib, uning o'rniiga yangi sovet bayramlari shakllantirildi. Biroq, bu bayramlarlarning paydo bo'lishi va mustahkamlanishi bir zumda bo'lmadi. Yangi bayramlar sovet daylatining asosiy sanalarini birlashtirishi, yangi ramzlarini joriy qilishi kerak edi. Shu sababli asosiy bayramlar sifatida oktyabr inqilobi, mehnatkashlar kuni kabi bayramlar keng nishonlanib, ular yillar davomida shakllantirilib borildi, bu tabiiyki SSSRdagi turli millat vakillarining uzoq yillik an'analari va qadriyatlarni siqib chiqardi. Maqlada turli ilmiy adabiyotlar yordamida sovet bayramlari shakllanishi tarixi tahlil etiladi.

**Kalit so'zlar:** taqvim, samoderjavie, Parij kommunasi, internatsional, inqilob, karnaval elementlari, plakatlar, kompozitsiya, figura, maket, klassik model, norasmiy, paradlar, ko'ngilochar tadbirlar, proletar madaniyati, nazariya, matbuot, ko'rsatma, ssenariyi, qishloqda ishlash, "qizil to'y", "qizil dafn marosimi", ramz, targ'ibot.

## НЕКОТОРЫЕ РАЗМЫШЛЕНИЯ О ФОРМИРОВАНИИ ПРАЗДНИКОВ СОВЕТСКИМ ПРАВИТЕЛЬСТВОМ В НАЧАЛЕ XX ВЕКА

Аннотация

В первые годы советской власти с целью воспитания людей на основе советской идеологии были уничтожены национальные ценности, сложившиеся за тысячи лет, и вместо них сформированы новые советские праздники. Однако появление и укрепление этих праздников не произошло мгновенно. Новые праздники должны были объединить основные даты советского государства. Поэтому такие праздники, как Октябрьская революция, День трудающихся, широко отмечались и с годами развивались, что, естественно, подавляло многоглетние традиции и ценности различных народов СССР. В статье с помощью различных научных источников анализируется история формирования советских праздников.

**Ключевые слова:** календарь, самодержавие, Парижская коммуна, интернационал, революция, карнавальные элементы, плакаты, композиция, фигура, макет, классическая модель, неформальные, парады, развлекательные мероприятия, пролетарская культура, теория, пресса, указания, сценарий, работа в деревне, "красная свадьба", "красные похороны", символ, пропаганда.

## SOME REFLECTIONS ON THE FORMATION OF HOLIDAYS BY THE SOVIET GOVERNMENT IN THE EARLY 20TH CENTURY

Annotation

In the early years of Soviet power, in order to educate people based on Soviet ideology, the national moral values that had formed over thousands of years were eradicated, and in their place, new Soviet holidays were established. However, the emergence and consolidation of these holidays did not happen immediately. New holidays were supposed to unite the key dates of the Soviet state and introduce new symbols. Therefore, holidays like the October Revolution and International Workers' Day were widely celebrated and developed over the years, which, of course, suppressed the long-standing traditions and values of various nations of the USSR. The article analyzes the history of the formation of Soviet holidays using various scientific sources.

**Key words:** calendar, autocracy, Paris Commune, International, revolution, carnival elements, posters, composition, figure, layout, classical model, informal, parades, entertainment events, proletarian culture, theory, press, instructions, script, rural work, "Red Wedding", "Red Funeral Ceremony" symbol, propaganda.

**Kirish.** Sovet hukumati hukmronligining dastlabki yillaridan san'at, kino, teatr va madaniyatning boshqa sohalari kabilar bita partiyaning mafkuraviy siyosatiga bo'yusundirildi. Sinfiylik asosida rivojlanish g'oyalari ilgari surilgan bu jamiyatda yagona madaniyatni yaratish kabi harakatlar madaniyat va san'at masalalalariiga biryolama yondashuvni belgilab berdi. Bu harakatlar milliy madaniyatlarining rivojlanishi, yangi, sovet hayoti sharoitlariga moslashuvi, bora-bora ularning bir-biriga yaqinlashib, aralashib ketishi kerakligi to'g'risidagi sovet konsepsiyasiga to'liq xizmat qildi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Mavzuga oid bir qator adabiyotlar bo'lib, ular qatoriga Z.Mirzayev(1991), A.Mavrulov (1993), Y.Ergasheva (1997), M.B. Yuldasheva (2004), V.T.Rajapov (2006), N.Maxkamova (2009),

X.Yunusova (2009) kabi tadqiqotchilarni ilmiy izlanishlarni kiritish mumkin. Ushbu asarlarda, O'zbekistonda yaratilgan tadqiqot ishlarida o'zbek milliy madaniyatining ta'qib ostida bo'lganligi va ommaviy madaniyat ta'sirida klassik asarlar o'z tasirini yo'qotib borganligi, ko'prok madaniyat xodimlarining sovet qatag'on tizimi qurboni bo'lganligi haqida tadqiqotlar yaratildi. Shuningdek, mavzuga oid xorij tadqiqotlarni Sht.Plaggenborg (2000), V.P.Konev (2001), S.Y.Malisheva (2005), S.Nikonova (2008), M.Rolf (2009), V.Popova (2017) kabilarning ishlari tashkil etadi. Bu adabiyotlarida esa sovet madaniyati, ommaviy madaniyat masalalari taxlit qilinib, rus madaniyati va san'atining sovet davridagi ta'qib ostiga olinishi haqida bir qator fikrlarni berib o'tganlar.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Manbashunoslik va tarixshunoslik sohalariga oid paleografik, matnshunoslik, siyosatshunoslik, sivilizatsion yondashuv, kontent analiz, dialektik, mikrotarix (microhistory), sinergetik, qiyosiy tahlil (comparative analysis), statistik tahlil (statistical analysis), tizimli tahlil, muammoviy-maqсадли yondashuv kabi ilmiy bilish usullaridan foydalaniildi.

**Tadqiqot tahlili va natijalar.** Sovet mustabid tuzumi o'zining ilk davridanoq kishilarni sovet mafkurasi asosida, sotsialistik inqilob ruhida tarbiyalash va shuning barobarida ming yillar mobaynida shakllangan milliy axloqiy qadriyatlarini yo'q qilishga harakat qildi. 1917-yil oktyabr davlat to'ntarishidan so'ng hokimiyatga bolsheviklarning kelishi jamiyatning barcha sohalarida sezilarli o'zgarishlarga ta'sir ko'rsatdi. Bu o'zgarishlardan biri yangi sovet bayramlarini yaratish, shakllantirish va rivojlantrishdan iborat bo'ldi.

Kompartiyaning taniqli yo'lboshchilaridan biri A.Buxarin kommunistlarning eng asosiy va dolzarb vazifasini aholini inqilobiy ruhda va ishchanlik kayfiyatiga tarbiyalash lozimligini ko'rsatib o'tgan. Uning fikricha, axloq borasidagi inqilobiy kayfiyat eng avvalo, inqilobiy jo'shqinlik asosida shakllanadi. Inqilobiy axloq tushkunlik, o'z ishiga umidsizlik, eski, chirindagi mafkuralar bilan kelisha olmaydi[1].

Yana bir ashaddiy inqilobchi L.Trotskiy esa, jamiyat madaniy hayoti, jumladan, milliy qadriyatlarini inqilobiy ruh bilan boyitish lozimligini ta'kidlaydi. Shuning uchun ham madaniy jarayon siyosiy kriteriyalar bilan boyimas ekan, u holda, sotsialistik axloq haqida gap bo'lishi mumkin emas, deydi. Ayni paytda, bu jarayonda sustakashlikka yo'l qo'yish, turli madaniy – ma'naviy yo'nalishlarni o'z holiga tashlab qo'yish kechirib bo'lmas hol ekanligiga e'tibor qaratadi. L.Trotskiy fikricha, madaniyatdagi siyosiy kriteriyalar o'ta jiddiy siyosiy yo'llar bilan, betoqatlik hamda qat'iy buyruq asosida amalga oshishi lozim[2].

Sovet davlatining yangi bayramlari davrning o'ziga xos xususiyatlari va qarama-qarshiliklarni o'ziga singdirgan alohida hodisa bo'lsada, bu bayramlarning paydo bo'lishi va mustahkamlanishi bir zumda bo'lmadi. Uning shakllanishi va rivojlanishi SSSR tashkil topgan davrdan boshlandi. Hatto, SSSRdag'i 1918-1920-yillardagi bayramlar 1960-yillardagi bayramlardan sezilarli darajada farq qilgan holda rivojlanib bordi[3]. Masalan, 1-May bayrami birinchi marta 1890-yilda "ishchilarning xalqaro birdamligi kuni" deb nomlangan bo'lsa, 1897-yildan boshlab, 1-May kuni ommaviy namoyishlar bilan birga siyosiy xarakterga ega bo'ldi[4]. Yangi sovet bayramlari qatorida 1-may 1918-yildan sovet bayramlarda asosiy o'rinni egalladi. Shu kuni butun mamlakat bo'ylab minglab mitinglar, namoyishlar va ko'cha yurishlari, inqilob yetakchilari, partiya a'zolari, ishchilar, askarlarning chiqishlari bo'lib o'tdi. "Bayram kuni Moskvada birinchi sovet ramzlaridan biri – "O'roq va bolg'a" surati paydo bo'ldi, u tez orada SSSR Davlat gerbining asosiga aylandi[5]". Shu tariqa 1918-yilda yangi tantanali ramzlar – o'roq va bolg'a (davlat ramzi), qizil yulduz (Qizil Armiya ramzi), yangi madhiya ("Internatsional") va davlat bayrog'i bo'lgan qizil bayroq – yaratildi.

Yangi bayramlar sovet davlatining asosiy sanalarini birlashtirishi, yangi ramzlarni joriy qilishi, bayram ommaning muloqoti orqali shakllanishi va jamiyatning yangi o'ziga xosligiga hissa qo'shishi kerak edi[6].

Sovet hokimiyat o'rnatilgandan so'ng, eski bayram taqvimida Yangi yil saqlab qolindi. Yangi kiritilgan bayramlar bo'lsa, 1905-yil 9-yanvar, samoderjavie-ning ag'darilishi – 12-mart, Parij kommunasi kunlari – 18-mart, Internatsional – 1-may va Proletar Inqilobi kuni – 7-noyabrda nishonlanadigan bo'ldi[7].

Oktyabr inqilobining bir yilligi asosiy davlat bayramiga aylandi. Shu bilan asta-sekin sovet bayramlarning soni ko'payib bordi. Birgina Petrogradda 1918-yil oktyabrdan

1922-yil oktyabrgacha bo'lgan davrda 23 ta bayram shakllandi[8].

1920-yillardan inqilobiy bayramlarni o'tkazish va tashkil qilish metodikasi jadal rivojlandi, unga tayyorgarlik yanada puxtalashib bordi. Bayram arafasida maxsus tushuntiruvchi ma'ruza va suhbatlar o'tkazilib, metodik qo'llanma va risolalar chop etilishi yo'lga qo'yildi. S.N.Shapovalov yozganidek, "...20-yillarning o'rtalarida Birinchi may va Oktyabr bayramlarini nishonlash vaqtida karnaval elementlari qo'llanila boshlandi. Ko'cha yurishlariiga tirik rasmlar, plakatlardan tuzilgan kompozitsiyalar, statik figuralar, maketlar va boshqalar olib chiqildi". Inqilobiy bayramlar soni ko'payishi bilan bayramlarning klassik modeli ikki qismdan iborat bo'lib bordi va ular tantanali rasmiy va norasmiy bayramlardan iborat bo'ldi. Birinchisiga mehnatkashlarning namoyishlari, ko'rik paradlar, ko'cha yurishlari, mukofotlash tadbirdi kirma, ikkinchisiga sport tadbirdi, ko'ngilochar tadbirdi, tomoshalar va boshqa kirdi. Birinchi modelga kiruvchi bayramlar, ya'ni "...kommunistlar uyuştirgan bayramlar inqilobchi xalqning, mehnatkashlarning bayrami bo'lmay qoldi[9]". Ikkinci modelga kiruvchi "ommaviylik esa borgan sari puxta rejalshtirish obyektiiga aylandi. Shu asosda asta-sekin proletkult (proletar madaniyat) nazariyasi ham ishlab chiqildi. "Proletkult" asoschilarining (A.A.Bogdanov. V.F. Plegnev) g'oyaviy qarashlarida milliy-anaviy madaniyatdan voz kechish, o'tmish madaniy merosini inkor etish prinsiplari yotar edi. O'sha vaqtarda "proletkult" ikki muhim vazifani amalga oshirgan bo'lib, ular eski "dvoryan" madaniyatini yo'q qilish va yangi "proletar" madaniyatini yaratishdan iborat edi[10].

A.Bogdanov proletar madaniyatini sotsialistik jamiyat qurilishining variantlaridan biri deb baholab, uning to'rt elementini, ya'ni mehnat madaniyat; jamoaviy madaniyat; o'tmish meroслaridan ozod madaniyat; qarashlar va metodlar umumiy nuqtasi bo'lgan madaniyatni ko'rsatdi. Bogdanov fikricha, proletar madaniyat sotsializm asosini tashkil etishi kerak edi[11]. E'tiborli tomoni shundaki, bularga xorij matbuotida "SSSRdag'i communistlar rus madaniyatini sovet jamiyatining keljak madaniyati sifatida tasavvur qiladilar va tasdiqlaydilar[12]", deb ta'rif berilgan.

Bayramlar hayotga joriy bo'lishi uchun ularga aholi orasida qiziqish uyg'otish, ularning qadriyatlarini aholi tomonidan qabul qilinishi uchun bayramlarni jamoaviy qilish kerak edi. Ayni paytda sovet bayramlarini nishonlashda mafkuraviy kurash shakllariga alohida e'tibor qaratildi va ular siyosiy kampaniyalar bilan tenglashtirildi. Ularning o'tkazilishi yangi bayram udumlari bo'lishini talab qilardi. Bayramlarga puxta tayyorgarlik ko'rilar, asosiy yo'nalish RKP(b) MKning ko'rsatmalarida belgilab berilardi. Ularni o'tkazish rejali VPK(b) MKning targ'ibot bo'limi tomonidan ishlab chiqilardi. Bayramlarni o'tkazish ssenariylari va metodikasi Xalq ta'limi komissarligi tomonidan ishlab chiqilardi. Qishloqda ishlar kuchayishi munosabati bilan 1924-yildan boshlab qishloqlarda bayramga tayyorgarlik ishlar bilan "Glavpolitprosvet" qoshidagi qishloqda ishslash bo'limi shug'ullanadi[13]. Joylarga bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatma va sirkulyar xatlar yuborildi va bu bayramlarni tashkil qilishni mustaqil talqin qilishga doimiy to'siq bo'lib keldi.

Sovet madaniy siyosati va sovet bayramlari ta'sirida diniy marosimlariga ham qarshi kurashlar ko'payib, "qizil to'ylar" va "qizil dafn marosimlari" keng tarqaldi. Dimiy ramzlarini o'zida mujassam etgan marosim va an'analar yo'q qilishni qisqa vaqt ichida amalga oshirish qiyin bo'lganligi sababli davlat har doim ham "eski marosimlar"ni yo'q qilishga jur'at etmadni, balki ularni "yangi", sotsialistik yoki "qizil" marosimlar bilan siqib chiqarishga harakat qildi. Ta'kidlash joizki, proletarit dohiylari, dasturlarida dingga qarshi kurash masalasi alohida mavzu bo'ldi. K.Marks ham o'zining "Gota

programmasini tanqid” degan asarida “ishchilar partiyasi mehnatkashlarning ongini din ta’siridan qutqazish kerak degan”[14], degan bo’lsa, V.Lenin “Men diniy marosimlarda ishtirok etuvchilarni partiyadan o’chirish tarafdriman”[15], deb fikr bildirdi.

Sovet olimlari, jumladan, X.Yunusov diniy aqidalar, bir tomondan, sovet kishilarining tabiat va jamiyat qonunlarini bilishiga, jamiyatda rivojlanib borayotgan ijtimoiy munosabatlarni tushunishga halaqt bersa, ikkinchi tomondan, ularning ijtimoiy mulkka, mehnat qilishga nisbatan halol munosabatda bo’lish, mehnat unumdoligini oshirish, xo’jalik tarmoqlarini intensivlashtirish ishiga zarar yetkazadi, deb yozdi[16]. Umuman, partiya diniy taassublarga qarshi tizimli kurash olib borishni, dinka qarshi targ’ibotni har taraflama rivojlantirishni o’zlarining vazifasi hamda umumpartiya ishining bir qismi deb hisobladи”[17]. Mana shu qarashlar oqibatida SSSR fuqarosi pasportini tantanalri ravishda topshirish marosimi ham yangiliklardan biri bo’ldi[18].

RKP (b)ning 1923-yil aprel XII syezdida ham tashviqot, matbuot va targ’ibot masalalari yuzasidan qabul qilgan rezolyutsiyasi dinka qarshi keskin tashviqotni kuchaytirishga alohida e’tibor qaratildi. Unda millionlab fukarolari diniy xurofotlardan uzel-kesil va tamomila forig’ qilish qayd qilindi. RKP(b)ning XIII syezdida esa “Qishloqda ishlash” to’g’risidagi rezolyutsiyasi qabul qilinib, bu ikki rezolyutsiya asosida 1925-yilda bo’lib o’tgan O’zbekiston Kompartiyasining I syezdida “Dinga qarshi propaganda va turmush xurofotlariga qarshi kurash” kabi rezolyutsiyasi qabul qilindi. Unda “partiya va komsomol yacheykalarida, shuningdek, partiya klub ishlarida (to’garaklarida) dinka qarshi bevosita propagandani yo’lga qo’yish uchun vaqt keldi deb hisoblaydi” kabi jumlalar qayd qilindi[19]. Tashviqot-targ’ibot ishlariga partiya a’zolari va komsomollarni, partiya va sovet apparati tarkibida faoliyat ko’rsatayotgan ayollarni keng jalb qilish muhimligi alohida uqtirildi[20].

To’ylarga yangicha tus berishga daslabki urinishlar ham 1920-yillarda bo’ldi. O’sha davrdagi hujjatlar va davriy

nashrlarda u “qizil to’y” deb nomlandi. Ushbu tadbirdan ikkita maqsad, ya’ni an’anaviy diniy marosimlarning tanazzulga uchraganligini ko’rsatish hamda yoshlarning hayot yo’lini tanlashda mustaqilligini ta’kidlash maqsadlar ko’zlandi. Shu tariqa ateistik yo’nalishga ega bo’lgan, sovet turmush tarzini, ijtimoiy munosabatlarni targ’ib qiluvchi “qizil dafn marosim”lari ham jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylanib bordi.

Barcha yangi sovet bayramlari rasmiy davlat bayramlari hamda (ishlab chiqarish faoliyati bilan bog’liq) kasbiy bayramlar bo’lib, qishloq va shaharlarga xos kasb bayramlari 1960-yillarda shakllandi, o’zida milliy va sovet madaniyati elementlarini aks ettirdi. Bu davrda faqat oilaviy bayram bo’lmay qolgan to’y bayramlar orasida alohida o’rin egalladi. Davlat komsomol tashkilotlari orqali to’ylarga faol aralashib, yangi marosim elementlarini kirita boshladi[21]. KPSSning yangi tahrirdagi Programmasida bu – “kishilarning mehnat va ijtimoiy faolligini oshirish, ularni ma’rifatli qilish, yangi sovet marosimlari va odatlarini keng yo’yish – ateistik tarbiyaning eng muhim tarkibiy qismidir, deb ta’kidlandi[22]”.

Kutubxonalar, o’quv zallar, bolalar bog’chalar, maktablar, yodgorliklar ochilishiga bag’ishlangan tantanali marosimlar ham bayram kunlari o’tkazildi. Keyinchalik bu tadbirdilar yiliga ikki marta – 7-noyabr va 1-may kunlari – o’tkaziladigan namoyishlarga almashtirildi[23].

**Xulosha.** Umuman, mamlakatda ma’muriy-buyruq-bozlik tizimi qaror topib mustahkamlanib borishi bilan bir qatorda respublikaning butun ijtimoiy-siyosiy hayoti muttasil siyosiylashtirilib va baynalminalashdirib borildi va hukmron partiya tomonidan “sotsialistik qurilish” va mustabid tuzumni mustahkamlash vazifalariga bo’ysundirildi. Ijtimoiy-siyosiy hayot shu qadar shiddat bilan o’zgarib bordiki, mavjud har bir masalaga, muammoga siyosiy nuqtai nazardan qaralди. Buning natijasida milliylik o’rniga amalda baynalmillallik ustuvor qilib qo’yildi, milliy qadriyatlar, an’ana, urf-odatlar oyoqosti qilindi.

## ADABIYOTLAR

- Бухарин Н. Избранные произведения. – М.: 1988. – Б.389.
- Троцкий Л. Литература и революция. –М.: 1991.–Б.172.
- Попова В. Праздник как социокультурный феномен. Учебное пособие. – Екатеринбург. Изд. Уральского унив., 2017. – С. 35.
- Попова В. Праздник как социокультурный феномен. Учебное пособие. – Екатеринбург. Изд. Уральского унив., 2017. – С. 36.
- Шаповалов С. Н. Советские революционные праздники в 1918–1920-е гг. // Cyberleninka : [сайт]. URL: <http://cyberleninka.ru/article/n/sovetskie-revolyutsionnyeprazdniki-v-1918-1920-e-gg-1>
- Попова В. Праздник как социокультурный феномен. Учебное пособие. – Екатеринбург. Изд. Уральского унив., 2017. – С. 36.
- Лебедева Л.В. Формирование советской праздничной культуры в 1920-е годы: новые ритуалы в процессе социального конструирования // Fundamental research. – № 2. – 2015. – С.1785.
- Попова В. Праздник как социокультурный феномен. Учебное пособие. – Екатеринбург. Изд. Уральского унив., 2017. – С. 37.
- Шаповалов С. Н. Советские революционные праздники в 1918–1920-е гг. // Cyberleninka: [сайт]. URL: <http://cyberleninka.ru/article/n/sovetskie-revolyutsionnyeprazdniki-v-1918-1920-e-gg-1>
- Ўзбекистон тарихи (1917–1991 йиллар). К.1. Ўзбекистон 1939–1991 йилларда / Масъул мухарирлар: Р.Абдуллаев, М.Рахимов, Қ.Ражабов. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2019. – Б.333.
- Максименко Е.П. Концепция «пролетарской культуры» в идеино-политическом наследии А. А. Богданова: Автореф. дис. .... канд. истор. наук. – М., 1996. – С. 17.
- Рахимов С., Каримов Р. Антикоммунистик қараашларнинг сохталиги. –Т.: Ўзбекистон, 1982. – Б. 53.
- Иников С.А. Советские праздники в русской деревне // Российский этнограф. Этнологический альманах: Антропология. Культурология. Социология. – М.: Российская Академия наук, 1993. – С. 124.
- Сидоров Д. Коммунистик партия динга қандай карайди. – Т.: “Қизил Ўзбекистон”, “Правда Востока” ва “Ўзбекистони Сурх” бирлашган нашриёти, 1956. – Б.9.
- Ленин В.И. Тўла асарлар тўплами. Т.50. – М.: Политиздат, 1970. – Б.277.
- Юнусов Х. Илмий-атеистик тарбия – ёшларнинг коммунистик руҳда тарбиялашнинг таркибий қисмидир. – Т.: “Ёш гвардия” нашриёти, 1986. – Б.5.
- Сидоров Д. Коммунистик партия динга қандай карайди. – Т.: “Қизил Ўзбекистон”, “Правда Востока” ва “Ўзбекистони Сурх” бирлашган нашриёти, 1956. – Б.8.

18. Попова В. Н.Праздник как социокультурный феномен. Учеб. пособие. – Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2017. – С.46.
19. Ўзбекистон Комммунистик партияси съездларининг резолюция ва қарорлари. Т.1. – Т., 1957. – Б. 48, 50, 51. // Салмонов А. Ўзбекистонда совет ҳокимиятининг диний сиёсати: уйдирма ва тарих ҳақиқати. Монография. – Т.: Tafakkur, 2015. – Б.49.
20. Салмонов А. Ўзбекистонда совет ҳокимиятининг диний сиёсати: уйдирма ва тарих ҳақиқати. Монография. – Т.: Tafakkur, 2015. – Б.49.
21. Буреева Е. В. Комсомольская свадьба 1960-х годов в системе идеологического воспитания советской молодежи: замыслы и реализация // Новейшая история России. – 2020. Т.10. №2. – С.503.
22. Совет Иттифоқи Комммунистик партиясининг программаси. – Т.: “Ўзбекистон”, 1986. – Б.63.
23. Шаповалов С.Н. Особенности организации и проведения первого советского государственного праздника в 1918 г. // Общество: политика, экономика, право. – 2001. – № 2. – С. 31–32.



Nargiza JURAYEVA,

Navoiy innovatsiyalar universiteti o'qituvchisi

E-mail:njurayeva12@gmail.com

NDKTU dotsenti, t.f.n D.Ismoilova taqrizi asosida

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA'LIM SOHASIDAGI AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada mustaqillik yillarda O'zbekiston Respublikasida ta'limga rivojlanishi, ta'limga sifatining va samaradorligining oshishi, ta'limga sohasida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarining o'zgarishi va uning mamalakatimiz ijtimoiy hayoti va iqtisodiyotida keltirayotgan foydasi tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston Respublikasi, ta'limga sohasi, tadqiqot, iqtisodiyot, kadrlar, farmoyish, maktab.

## REFORMS IN THE FIELD OF EDUCATION IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Annotation

This article analyzes the development of education in the Republic of Uzbekistan during the years of independence, the increase in the quality and efficiency of education, the changes in the scientific and research work carried out in the field of education and the benefits it brings to the social life and economy of our country.

**Key words:** Republic of Uzbekistan, education sector, research, economy, personnel, order, school.

## РЕФОРМЫ В СФЕРЕ ОБРАЗОВАНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Аннотация

В данной статье анализируется развитие образования в Республике Узбекистан в годы независимости, повышение качества и эффективности образования, изменения в научно-исследовательской работе, проводимой в сфере образования, и польза, которую она приносит общественная жизнь и экономика нашей страны.

**Ключевые слова:** Республика Узбекистан, сфера образования, исследования, экономика, кадры, заказ, школа.

**Kirish.** Bugun O'zbekiston Respublikasi hayotining barcha sohalarida chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta'limga tizimidagi o'zgarishlar haqida ta'kidlab o'tishimiz lozim. O'zbekiston mustaqillikni qo'lg'a kiritilgan ilk yillardayoq ta'limga sohasini tubdan isloh qilish va rivojlantirish, yosh avlodni har tomonlama ma'naviy va jismoniy yetuk kadrlar qilib voyaga yetkazish ta'limga sifatini oshirishga bor e'tiborini qaratadi. Buning natijasi o'laroq 1992-yil 2-fevralda "Ta'limga to'g'risida"gi Qonuni va 1997-yil 29-avgustda "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" e'lon qilinadi. Ushbu dasturlarda mamlakatimiz ta'limga sohasining ustuvor yo'nalishlari e'lon qilinadi va ta'limga tizimining zimmasiga juda katta mas'uliyatlari ulug'vor vazifalarni yuklanadi. "Inson qalbiga yo'l avvalo ta'limga tarbiyadan boshlanadi" [1]. Shu bois ham yoshlarga ta'limga tarbiya berish jarayonida o'qituvchi-pedagoglardan yuksak mahorat va har bir faoliyat turini to'g'ri tashkil etish talab etiladi.

Zamonaviy maktablar barpo etish mayjud maktab binolarini kapital yoki joriy ta'mirlash katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga ta'limga tarbiya ishlaring ma'no - mazmuniga e'tiborni kuchaytirish, maktablarni zamonaviy jihozlar, mebellar, o'quv - labaratoriya uskunalarini, kompyuterlar, sport anjomlari bilan ta'minlash ham muhim ahamiyatga ega ekanini unutmasligimiz lozim [2].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Mustaqillik yillarda O'zbekistonda ta'limga tizimi jahon standartlariga mos ravishda rivojlanib bormoqda.

Bu haqida M.Boltaboyeva o'zining "Uzluksiz ta'limga" kitobida "Ta'limga tizimi" milliy modeli - O'zbekiston Respublikasida ta'limga tizimini yangilangan sog'lom pedagogik tafakkur asosida tubdan isloh qilish, ta'limga tarbiya muassasalarida tayyorlanadigan kadrlarni intellektual,

ma'naviy va axloqiy savyasiga ko'ra rivojlangan davlatlar darajasiga yetkazish bo'yicha belgilangan nazariy-metodologik, amaliy pedagogik yondashuvlar majmuyi" deb tushuntiradi[3].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Bugungi kunda ta'limga sohasini tubdan takomillashtirish davr talabiga aylangan. Ushbu talabdan kelib chiqqan holda, ta'limga sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlar qabul qilinmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Ta'limga to'g'risida"gi qonuni yangi tahrirda 2020 yil 23-sentabr kuni qabul qilingan bo'lib, uning maqsadi ta'limga sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Mazkur Qonunga asosan ta'limga sohasidagi asosiy prinsiplar, ta'limga tizimi, turlari va shakllari aniq belgilab qo'yildi, unda belgilangan masofaviy ta'limga haqidagi qoidalar o'quv rejalarini va o'quv dasturlariga muvofiq ta'limga oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda Internet jahon axborot tarmog'idan foydalangan holda masofadan turib olishga qaratilgan. Shuningdek, Qonunga ko'ra, davlat oliy ta'limga, o'rta maxsus, professional ta'limga muassasalarini va ularning filiallari, shuningdek davlat ishtirokidan oliy, o'rta maxsus, professional ta'limga tashkilotlari va ularning filiallari Prezident yoki Hukumat qarorlari bilan tashkil etiladigan bo'ldi. Nodavlat ta'limga muassasalarini tashkil etish ularning ta'sischilari tomonidan amalga oshirilishi belgilandi. Nodavlat ta'limga tashkilotlari ligsenziya Ta'limga sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan beriladigan bo'ldi. Qonunda dual ta'limga oid qoidalar belgilanib, u ta'limga oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni olishga qaratilgan bo'lib, ularning nazariy qismi ta'limga tashkiloti nezizada, amaliy qismi esa ta'limga oluvchining ish joyida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, qonunga inklyuziv ta'limga

to'g'risidagi qoidalar kiritilib, unga binoan, inklyuziv ta'limga alohida ta'limga ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'limga oluvchilar uchun ta'limga tashkilotlarida ta'limga olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan. Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'limga tashkilotlarida inklyuziv ta'limga tashkil etadi. Mazkur qonun jahon standartlari talablaridan kelib chiqqan holda ta'limga sohasidagi munosabatlarni tartibga solishning qamrovi kengligi va o'ziga xos xususiyatga ega ekanligi bilan 1997 yil 29 avgust kuni qabul qilingan "Ta'limga to'g'risida"gi qonundan tubdan farq qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Shavkat Miromonovich O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimda ta'kidlaganlaridek: Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu - ilm-fan, ta'limga va tarbiyadir. Ertangi kuminiz, Vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda ta'limga tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq[4]. O'zbekiston Respublikasining 30 yoshgacha bo'lgan aholisi butun aholining 60 foizini tashkil etadigan noyob demografik holatga yuz tutish arafasida[5]. Shunday ekan yoshlarning ongini, ma'naviyatini, salohiyatini, madaniyatini, bilim darajasini shakllantirmay turib biz kelajagimizga istiqbolimizga nazar tashlay olmaymiz. Bu bo'yicha qator qonunlar qarorlar chiqarilayotgani hech kimga sir emas. O'zbekiston Respublikasining ta'limga to'g'risidagi qonuni Kadrlar tayyorlash milliy dasturi 30 yilga mo'ljallangan konsepsiya va ta'limga to'g'risidagi bir qancha qaror va qonunlarning qabul qilinishi yoshlarning kelajagini o'ylab, davlatimiz rivojini o'ylab amalgaga oshirilmoqda. Prizident Shavkat Mirziyoyev bejizga "biz ta'limga tizimiga o'qituvchi va murabbiylar nufuzini oshirishga katta ahamiyat beryapmiz. Chunki jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish kerak." [6] deb ta'kidlamaganlar. Mamlakatimiz ta'limga sohasida xalqaro aloqalarni rivojlanir, dunyo rivojlangan davlatlarning tajribasini o'rganmoqda. Darhaqiqat, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan so'nggi yillarda oliy ta'limga tizimida olib borilayotgan islohotlarning bosh maqsadi – malakali va zamonaviy bilimga ega kadrlar tayyorlashda dunyoning rivojlangan davlatlari bilan xalqaro hamkorlikni yanada rivojlanirish, shu orqali yurtimizdagi oliy ta'limga ilmiy tadqiqot muassasalarini professor-o'qituvchilar, ilmiy xodimlarining xorijiy universitetlar, ilmiy tadqiqot muassasalarida ilmiy va akademik tajribasini orttirishi uchun

imkoniyat yaratish ishlariiga katta ahamiyat qaratilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, bugungi kun talabalarining xorijiy oliy ta'limga muassasalarida qisqa va uzoq muddatli o'quv-kurslari, konferensiya va seminarlarda ishtirokini ta'minlash, xorijiy OTMlар bilan hamkorlikda ta'limga dasturlarini joriy etish, ta'limga jarayoniga xorijiy malakali mutaxassislarini jalb etish kabi bir qator muhim vazifalarni amalga oshirishni taqozo etadi.

**Tahsil va natijalar.** Ushbu dastur va loyihalar davlatda ta'limga sohasini rivojlanirish, ilg'or xorijiy tajribani qo'llagan holda o'quv-metodik jarayoni takomillashtirish, professor -o'qituvchilarning malakasini oshirish, talabalar almashinuvini kengaytirishga yo'naltirilgan. Mamlakatimiz ta'limga sohasida dolzarb islohotlar o'tkazilayotgan paytda rivojlangan mamlakatlarning ta'limga tizimini o'rganish, zamonaviy texnologiyalar va samarali metodlarni tadbiq etish ustuvor vazifa etib belgilandi. Germaniya, Avstriya, Shveysariya kabi mamlakatlarda iqtisodiyotini rivojlanirishda juda katta o'ringa ega bo'lgan. Dual ta'limga shakli mamlakatimiz ta'limga sohasida joriy etildi. "An'anaviy ta'limga shaklida o'quvchi/talaba oliy yoki professional ta'limga muassasasida nazariy bilimlarni ko'proq egallab, amaliyot qismini juda oz soatlarda korxona va tashkilotlarda o'taydi. Dual ta'limga yoshlardan 2-3 kun ta'limga muassasasida nazariy bilimlarni va 3-4 kun korxona va tashkilotlarda haqiqiy ish jarayonlarida amaliy ko'nikmalarini egallaydi. Dual ta'limga shaklida tahsil olayotgan o'quvchi/talaba korxona va tashkilotlarda ishga qabul qilinganda ularga korxona tomonidan ustoz biriktiriladi va oylik maoshi to'lanadi" [7]. Bu tajriba asosida qabul qilingan prezident qaroriga ko'ra: 2022/2023-o'quv yilidan boshlab kunduzgi ta'limga shaklidagi 2-4-bosqich talabalar uchun haftalik o'quv mashg'ulotlar "4+2", jumladan darslarning 4 kuni OTMda, 2 kuni umumiy o'rtalimga muassasalarida amaliyot o'tash tartibida olib boriladi[8]. Mamlakatlarimiz universitet va ilmiy yo'nalishlarda ham aloqalar o'rnatildi. 2018-yildan beri Krems amaliy fanlar universiteti va Toshkent iqtisodiyot va biznes universiteti yoki Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti va Zalsburg universiteti o'rtasida yaqin hamkorlik yo'lga qo'yilgan.

"O'ZBEKISTON – 2030" strategiyasida ko'zda tilgan quyidagi islohotlar kelajakda mamlakatimizning ta'limga sohasini yanada yuqori bosqichga ko'tarishga xizmat qiladi:

1.	Maktabgacha ta'limga tizimini yangi bosqichga olib chiqish hamda bolalarning to'liq qamrovini ta'minlash.	Bolalarni maktabgacha ta'limga tayyorlov guruhlari bilan to'liq qamrab olish. Davlat maktabgacha ta'limga tashkilotlarini 100 foiz kompyuter sinfi bilan ta'minlash orqali tarbiyalanuvchilarda boshlang'ich kompyuter savodxonligi ko'nikmalarini shakllantirish.
2.	Umumiy o'rta ta'limga tizimida "Ta'limga uchun qulay muhit" dasturini amalga oshirish.	Olis va chekka hududlarda joylashgan 715 ta umumiy o'rta ta'limga muassasalarini toza ichimlik suv va zamonaviy sanitariya-gigiyena infratuzilmasi bilan to'liq ta'minlash.
3.	Pedagog kadrlar maqomini oshirish, ularning bilimi va malakasini xalqaro standartlarga muvoqiqlashtirish	1000 nafar tarbiyachi va o'qituvchilarini xorijiy mamlakatlarga malaka oshirish va stajirovkaga yuborish. Maktabgacha ta'limga tashkilotlari va umumiy o'rta ta'limga muassasalarini pedagog xodimlarining o'rtacha ish haqini 2 barobar oshirish. 500 ming nafar maktabgacha ta'limga tashkilotlari va umumiy o'rta ta'limga muassasalarini xodimlarining malakasini uzlksiz oshirish.
4.	Professional ta'limga tizimini rivojlanirish orgali o'quvchilarini zamonaviy bilim va ko'nikmalarga o'rgatish.	700 ta professional ta'limga muassasalarida ta'limga sifatini oshirish va moddiy-tehnika bazasini takomillashtirish. 14 ta hududiy professional tayyorgarlik markazlarini tashkil etish, malaka toifasiga ega bo'lgan pedagog kadrlar ulushini 50 foiziga, masofaviy yoki aralash shakllarda tashkil etiladigan malaka oshirish kurslari ulushini 30 foizga yetkazish.
5.	Oliy ta'limga muassasalarini tashkiliy-boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, ularning moddiy-tehnik ta'minotini mustahkamlash.	5 ta oliy ta'limga muassasalarini milliy tadqiqot oliygohlariga aylanlarish. Qo'shimcha 120 ming o'rinni o'quv binolari hamda 150 ming o'rinni talabalar turar joylarini qurish. Kutubxonalarni kamida 1 million ta zamonaviy adabiyotlar bilan to'ldirish va kutubxona fondini to'liq raqamlashtirish.

[9]

**Xulosa va takliflar.** Xulosa o'rnida O'zbekiston Respublikasi ta'limga rivojlanishi tarixi va bugungi rivojlanish istiqbollarini tahlil qilgan holda quyidagi takliflarni ilgari suramiz:

Respublikamizda ta'limga sohasini yanada rivojlanirish uchun xorijiy mamlakatlar bilan aloqalarni yanada kengaytirish;

Respublikamizda kadrlarga bo'lgan talabni qondirish maqsadida yangi ta'limga yo'nalishlarini ochish. Masalan, fransuz tili, coreys tili, turk tili va kasbiy ta'limga v.h.

talabar hamda professor o'qituvchilarini xorija o'qishga yuborish yangi bilim, ko'nikmaga ega bo'lish

Zamonaviy texnologiyalarni qo'llagan holda ta'limga samaradorligini oshirish.

Shuni unutmasligimiz kerakki, yurt kelajagi, vatanimiz taraqqiyoti va xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimiz va yoshlarimizning bugun qanday ta'lrim va tarbiya olishiga bog'liqdir. Shu sababli har bir ota-onu, ustoz va murabbibi har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rishi

zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, o'nib-o'sib kelayotgan yoshlarni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak.

#### ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008,B.134
2. G'ulom Mirzo "Maktab jihozlari ko'rgazmasi bilan tanishuv" maqola "Toshkent oqshomi" gazetasi, 2005-y. 85-son, b.1.
3. Boltaboyeva M.L. "Uzliksiz ta'lim" O'quv uslubiy majmua, Namangan 2023
4. Mirziyoyevning Sh.M. O'qituvchi va murabbiyalar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i nutqidan
5. Mirziyoyev Sh."Insonparvarlik, ezungulik va bonyodkorlik–milliy g'oyamizning poydevoridir. Toshkent: «Tasvir» nashriyoti uyi , 2021. – 8b.
6. Jalilov, A. A., & Qodirova, S. T. (2024). Dual ta'lim nima? Dual ta'lim haqida tushuncha. Uzbek scholar journal, 26, 73-75.
7. Abdurakhimov Husniddin (19 june 2024 ) "O'zbekiston va Avstriya Respublikasi o'rtasida investitsiyaviy, huquqiy hamda ilm-fan sohasida hamkorlikning mustahkamlanishi" scienceproblems.uz
8. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари № 6 (4).(150-158)
9. O'zbekiston -2030 Strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son



**Imyamin KIRGIZOV,**  
Farg'onadavlat universiteti dotsenti  
E-mail:imyaminqirgizov@gmail.com

Farg'onadavlat universiteti dotsenti B.Mirzraximov taqrizi ostida

## O'ZBEK MUSIQA SAN'ATI RIVOJIDA AYOL XONANDALIGI MAKtablari FAOLIYATINING TARIXIY NEGIZLARI

Annotatsiya

O'zbek musiqa san'atida ayol xonandaligi maktablarining tarixiy rivoji, milliy madaniyat va san'at rivoji yo'lida muhim ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqotda ayol xonandalik maktablarining paydo bo'lishi, shakllanishi va ularning musiqa san'atiga qo'shgan hissasiga alohida e'tibor qaratilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi – ayol xonandalar ijodining o'ziga xos jihatlarini o'rganish, ularning ijtimoiy va madaniy hayotda tutgan o'rmini oshib berish hamda bu maktablarning musiqa san'ati rivojiga ko'rsatgan ta'sirini tahlil qilishdan iborat.

Kalit so'zlar: Ayol xonandalik, tarixiy rivojlanish, madaniy meros, an'anaviy musiqa, O'zbek san'ati, xonandalik maktablari, ijodiy an'analar.

## ИСТОРИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЖЕНСКИХ ПЕВЧЕСКИХ ШКОЛ В РАЗВИТИИ МУЗЫКАЛЬНОГО ИСКУССТВА УЗБЕКИСТАНА

Аннотация

История развития школ женского вокального искусства в узбекской музыкальной культуре занимает важное место в процессе формирования национальной культуры и искусства. Узбекская музыкальная традиция, богатая своими мелодиями и жанровым разнообразием, включает в себя значительный вклад женщин-исполнителей, чи творчество и мастерство способствовали сохранению и развитию национальных музыкальных традиций.

**Ключевые слова:** женское вокальное искусство, историческое развитие, культурное наследие, творческие традиции. традиционная музыка, узбекское искусство, школы вокального мастерства.

## HISTORICAL FOUNDATIONS OF THE ACTIVITY OF FEMALE SINGING SCHOOLS IN THE DEVELOPMENT OF UZBEKISTAN MUSICAL ART

Annotation

The historical development of female vocal schools in Uzbek musical art holds significant importance in the advancement of national culture and art. This research focuses on the emergence, formation, and contributions of female vocal schools to musical art. The main objective of the study is to explore the unique aspects of female singers' creative works, uncover their role in social and cultural life, and analyze the influence of these schools on the development of musical art.

**Key words:** female vocal art, historical development, cultural heritage, traditional music, Uzbek art, vocal schools, creative traditions.

**Metodologik asos.** O'zbek musiqa san'atida ayol xonandalaring maktablari katta tarixiy ahamiyatga ega bo'lib, ular milliy musiqa madaniyatni rivojiga salmoqli hissa qo'shgan[1]. Ayol xonandalarning ijodi va pedagogik faoliyati nafaqat ijodiy o'ziga xoslikni, balki ijtimoiy-axloqiy qadriyatlarni ham targ'ib qilgan.O'zbek xalq qo'shiqlari va an'anaviy musiqa. Ustoz-shogird an'analar. XX-asr boshida shakllangan musiqa maktablari va ijrochilik san'ati.Ayol xonandalarning ijodiy usullari, kuylash texnikasi, va ovoz imkoniyatlari an'anaviy musiqa maktablari asosida shakllangan. Ayol xonandalar maqom ijrosida yuksak san'at darajasiga erishgan.Qo'shiqlar va raqslarning ijrosi xalq an'analarini asosida bo'lgan. Ayol xonandaligi maktablari ustoz-shogird an'anasini saqlash va rivojlantirish orqali avlodlar o'rtaqidagi aloqani ta'minlagan. O'zbek musiqa san'atida ayol xonandaligi maktablari milliy madaniyatni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Ularning metodologiyasi milliy an'analarga asoslangan holda zamonaviy pedagogik metodlar va texnologiyalar bilan uyg'unlashtirishdan iborat bo'lgan[2]. Ushbu manbalar umumiyo metodologiya va ta'lim masalalarini ko'yicha ma'lumot beradi.

Bugungi kunda xotin-qizlarimiz farzand tarbiyasida, turli sohalarda, mahallalarda fidoyilik ko'rsatmoqda.

Shuningdek o'zbek musiqa san'ati rivojida ayol xonandaligi maktablari faoliyatining takomillashtirish bo'yicha qator imkoniyatlari yaratilmoqda. Zero, ayol xonandaligi musiqiy ohanglar vositasida — inson hissiy kechinmalari, fikrlari, tasavvur doirasini usiqiy tovush (ton, nag'ma)lar izchilligi yoki majmui vositasida aks ettiruvchi sanat turi sifatida uning mazmuni ayol xonandalarning o'zgaruvchan ruhiy holatlarni ifodalovchi muayyan musiqiy badiiy obrazlardan iborat bo'lib, musiqa turli kayfiyatları (mas, ko'tarinkilik, shodlik, zavklanish, mushohadalik, g'amginlik, xavf-qo'rquv va b.) ni o'zida mujassamlashtiradi. Shuningdek, musiqa ayol xonandalarning irodaviy sifatlari (kat'iyatlik, intiluvchanlik, o'ychanlik, vazminlik va b.)ni, uning tabiatini (mijozi)ni ham yorqin aks ettiradi[3]. Demak ayollarning musiqa san'atidagi o'rni shundaki, yollar insoniyatning tarixiy taraqqiyoti davomida musiqa san'atida muhim o'rinn tutib kelgan. Ular nafaqat ijrochi sifatida, balki musiqani yaratish, rivojlantirish va uni saqlab qolishda ham muhim rol o'ynaganlar. Ayollarning musiqadagi ishtiroti nafaqat madaniyatlarni boyitib, balki ijtimoiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatib, ayollarning jamiyatdagi mavqeini mustahkamlashga hissa qo'shgan.

**Adabiyotlar va manbaalar tahlili.** Ayollarning musiqa san'atidagi ishtiroki qadimgi misrda, gresiyada va rimdagi madaniy tadbirdarda, ayniqsa, marosimlarda qo'shiq aytish va musiqa ijro etishda ishtirok etganlar. Qadimgi manbalarga ko'ra, ayrim ayollar professional musiqachi sifatida tanilgan.

Cherkovga mansub ayollar (ruhoniylar yoki cherkov xizmatchilar) odatda o'qimishli bo'lib, ular musiqa nazariyasini o'rganish imkoniyatiga ega bo'lgan. Ushbu bilimlar ularga cherkov musiqa ijrosida yuqori darajada ishtirok etishga yordam berган.

Ayollardan iborat xor guruhlari asosan qo'shiqlar va madhiyalarni ijro etgan. Bu musiqa ilohiy mazmunga ega bo'lib, jamoaviy ibodatlar chog'ida aytilgan.

Ayollarning musiqa sohasidagi ishtiroki cherkovning qoidalari bilan chegaralangan bo'lib, ularning ijrosi asosan diniy maqsadlarda foydalanilgan.

Islom olamida, ayniqsa, Bag'dod xalifaligi davrida, ayollar musiqa va she'riyat bilan shug'ullanganlar.

Bag'dod xalifaligi davri (750–1258 yillar) ilm-fan, madaniyat va san'at rivojlangan davrlardan biri hisoblanadi. Bu davrda xalifalikning poytaxti Bag'dod dunyo madaniyati markaziga aylangan. Ayollar ham jamiyatda muhim o'rinni tutib, musiqa, she'riyat va boshqa san'at turlari bilan shug'ullanganlar.

Xalifa saroylari nafaqat siyosiy markazlar, balki madaniyat va san'at rivojlangan joylar edi. Bu yerda ta'lim oлgan va san'at bilan shug'ullangan ayollar bo'lgan. Ular orasida mashhur musiqa ustalari va shoirlar ham bor edi.

Ayollar musiqa vositalarida ijro etish va qo'shiq kuylash sohasida ham faol edilar. Ular orasida o'qituvchi va musiqa ustalari ham bo'lgan. Musiqadagi faoliyatlar ularning ijtimoiy obro'sini oshirgan.

Bag'doddagi Bayt al-Hikma (Donishmandlik uyi) 9–10-asrlarda Islom olamining ilmiy va madaniy markazlaridan biri sifatida juda katta nufuzga ega bo'lgan. Ushbu muassassa asosan falsafa, matematika, tibbiyat, astronomiya va boshqa fanlarning taraqqiyoti uchun xizmat qilgan bo'lsa-da, u musiqa kabi san'at sohalariga ham alohida e'tibor qaratgan.

Bayt al-Hikma faqtgina ilmiy markaz emas, balki musiqa, san'at va madaniyatning ham gullab-yashnashida muhim o'rinni tutgan. Bag'dod madaniy muhitida ayollarning musiqa sohasidagi ishtiroki nafaqat ijrochilik, balki nazariy tadqiqotlar orqali ham muhim ahamiyat kasb etgan. Ular islomiy sivilizatsiyaning musiqiy merosini boyitishga katta hissa qo'shganlar. Ayollar saroylarda xizmat qilib, o'z iste'dodlarini namoyon etganlar. Ular turli marosimlarda musiqa va she'rlar ijro etishgan va bu orqali ular ijtimoiy hayotning muhim qismiga aylangan.

Bag'dod xalifaligi davrida ayollar musiqa va she'riyat orqali o'z iste'dodlarini namoyon etishgan va jamiyatning madaniy hayotiga salmoqli hissa qo'shganlar. Ular nafaqat saroylarda, balki keng jamoatchilik orasida ham o'zlarining ijodiy ishlari bilan tanilganlar. Bu davrdagi ayollar ijodi hamon tarixiy va madaniy ahamiyatga ega.

Ayollarning saroylar va ziyoli muhitlarda musiqa ijrochilarini va o'qituvchi sifatida faoliyat ko'rsatishi tarixiy va madaniy jihatdan boy mavzu bo'lib, bu jarayon ayniqsa, qadimgi Sharq va Markaziy Osiyo madaniyatida alohida ahamiyatga ega bo'lgan.

Qadimgi Sharq va Markaziy Osiyodagi saroy madaniyatida ayollar musiqa ijrosi va o'qitishda muhim o'rinni tutgan. Ayollar rubob, tanbur, dutor kabi milliy sozlarni ijro qilish bilan mashhur bo'lgan. Ular saroylardagi madaniy tadbirdarda hamda xususiy yig'ilishlarda o'z ijrolari bilan ishtirok etgan.

Ayol qo'shiqchilar saroylarda hunarmandlik darajasiga yetgan musiqa va qo'shiq ijrochiligi bilan mashhur bo'lgan. Ziyoli ayollar musiqa o'rgatish bilan shug'ullangan.

Ular saroylardagi hunarmandlik muhitida yoshlarga ham nazariy, ham amaliy musiqa ta'limini berган.

Temuriylar davri (XIV–XV asrlar) Sharq madaniyatining "Uyg'onish davri" hisoblanib, ayollarning ijtimoiy va madaniy hayotdagi ishtiroki yanada yorqin namoyon bo'lgan. Ayollar o'z muhitlarda musiqa maktablarini tashkil etgan yoki mashhur musiqa maktablari dars berган. Ayollardan iborat musiqa ansamblari shoh va amirlarning saroylarda muntazam chiqish qilgan. Ziyoli ayollar musiqa va madaniyatni rivojlantirishga rag'bat berган. Ularning qo'llab-quvvatlashi bilan mashhur musiqa asarlari yaratilgan. Buyuk Sharq madaniyatida ayol ijrochilar XX-asrgacha o'z faoliyatlarini davom ettirib, milliy musiqani saqlab qolishda katta hissa qo'shgan.

Mustaqillik yillarda O'zbekistonda madaniyat va san'at sohasida, jumladan, ayol xonandaligi maktablarining faoliyati uchun ko'plab imkoniyatlar yaratildi[4].

Mustaqillik yillarda O'zbekistonda madaniyat sohasini rivojlantirish maqsadida qator qonunlar, farmonlar va qarorlar qabul qilindi[5]. Mustaqillik davrida milliy madaniy merosni tiklash va rivojlantirishga katta e'tibor berildi. Ayol xonandalar ijodini qo'llab-quvvatlash maqsadida: Milliy musiqa va xonandalik maktablari tashkil etildi. Har yili milliy musiqa va san'at festivalari o'tkazilishi yo'lga qo'yildi (masalan, "Sharq taronalari"). O'zbekiston milliy musiqa kademiysi va boshqa ijodiy muassasalarda xonandalik yo'naliishlari ochildi. Ayollar ijodini ommalashtirish va rag'batlantirish maqsadida maxsus grantlar, stipendiyalar va konkurslar tashkil qilindi. Ayol xonandalarning xalqimizning madaniy va ma'naviy hayotidagi o'rnni oshirishga qaratilgan maxsus ko'rgazmalar, konsertlar va festivallar o'tkazildi. Taniqli ayol xonandalar ijodi ommalashtirilib, ularning tajribalaridan foydalanish uchun yosh xonandalarga ustoz-shogird tizimi joriy etildi.

Ayol xonandalarning ijodiy faoliyati televiedenie, radio va boshqa ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritila boshladи. Ayol xonandalarning ijodiga bag'ishlangan maxsus teleko'sratuvlar va radio dasturlar tashkil qilindi. Milliy musiqa asarlari, shu jumladan, ayol xonandalar ijrosidagi qo'shiqlar yangi formatda yozilib, saqlandi. Mamlakatda ayollar uchun maxsus musiqa maktablari va yo'naliishlari ochildi. Yosh xonandalarning kasbiy mahoratini oshirish uchun mahorat darslari va seminarlar o'tkaziladi. Xalqaro madaniy aloqalar orqali ayol xonandalarning xorijda ham tajriba orttirishiga sharoit yaratildi.

O'zbekiston ayol xonandalari xalqaro festival va tanlovlarda ishtirok etib, o'z ijodiy imkoniyatlarini namoyish qilmoqda. Bunday tadbirdar orqali ular nafaqat mamlakatimiz madaniyati, balki o'zlarining kasbiy mahoratini ham namoyon qilishmoqda.

Mustaqillik sharoitida ayol xonandalari maktablari faoliyatiga ko'rsatilgan e'tibor milliy madaniyatni boyitish, uning jahon miqyosida tan olinishiga hissa qo'shishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

**Xulosalar.** O'zbek musiqa san'atida ayol xonandalar maktablari faoliyati milliy madaniyat va san'at rivojining muhim qismi sifatida alohida ahamiyatga ega. Ular an'anaviy qo'shiqchilik san'atini boyitib, milliy musiqa merosini saqlash va kelajak avlodga yetkazishda katta o'rinni tutgan. Ayol xonandaligi maktablari orqali shogird-ustozlik an'anasi rivojlanib, o'zbek musiqasi ijro san'atining noyob namunalarini vujudga kelgan. Bunday maktablar ayollarning ijtimoiy mayqeini ko'tarishda ham xizmat qilgan. Ayniqsa, Temuriylar davri va ungidaroq davrlarda ayol musiqa ijrochilarining ijtimoiy va madaniy hayotga ta'siri o'ta muhim bo'lib, ular nafaqat musiqa ijrochisi, balki madaniy yetakchi sifatida ham faoliyat yuritgan. Bugungi kunda ayol xonandalar maktablari musiqa san'atida zamona naviy va an'anaviy usullarni

uyg'unlashtirib, yangi iste'dodlarni kashf etishda muhim o'rincutmoqda.

**Tavsiyalar.** Musiqa ta'lim muassasalarida ayol xonandaligiga yo'naltirilgan maxsus kurslar, laboratoriylar va tadqiqot markazlarini tashkil qilish lozim. Ayol xonandalar ijro san'atining tarixiy va amaliy namunasi bo'lgan audio va video arxivlarni yaratish, ularni raqamlashtirish orqali kelajak avlod uchun saqlab qolish zarur. Ayol xonandaligi mакtablarining tarixiy negizlarini chuqur o'rganish, ularning madaniy va ijtimoiy ahamiyatini yorituvchi ilmiy ishlар sonini

oshirish kerak. Milliy ayol xonandalar ijodiga bag'ishlangan festivallar, ko'rgazmalar va ommaviy tadbirlarni tashkil etish orqali ularning ijodini keng ommaga yetkazish tavsiya etiladi. Xalqaro miqyosda o'zbek ayol xonandalarining ijodini tanish maqsadida boshqa mamlakatlar musiqa mакtablari va tashkilotlari bilan hamkorlikni kengaytirish zarur. Zamonalivij ijtimoiy madaniy muhitda ayollarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning musiqa sohasida erkin ijod qilishi uchun qo'llab-quvvatlash dasturlarini amalga oshirish tavsiya etiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. O'zbekistonda san'at va madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan bir necha dasturlari. "Madaniyat va san'at sohasini yanada.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. O'zbekistonda san'at va madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan bir necha dasturlari. "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar dasturi" (2017–2021 yillar uchun) 31 may 2017 yil.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori."Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmon.26 may 2020 yil
4. O'zbekiston Respublikasining "Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonuni 2021 yil 20 yanvarda qabul qilingan bo'lib, 2021 yil 21 yanvarda kuchga kirgan.Shuningdek, qonun 2021 yil 21 yanvarda "Xalq so'zi" gazetasida rasman e'lon qilingan..
5. "Ingliz tili o'qitish metodikasi" – U. Xoshimov va I. Yoqubov tomonidan yozilgan ushbu qo'llanma chet tili o'qitish metodikasining nazariy asoslari, til materiallarini o'rgatish va o'qitish jarayonimi tashkil qilish kabi mavzularni qamrab oladi. Nashr yili: 2003.
6. "Mahmud Zamaxshariy "Asos-ul-balog'a"" asarining manbushunoslik tadqiqi. Nashr yili: 2018.
7. Abdumannon Nazarov, Olimjon Bekov. QJMUS.INFO xalqaro ilmiy-amaliy anjumani 2022 yil 30 noyabr | scientists.uz



**Davlatbek QUDRATOV,**

Guliston davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi, PhD

E-mail: [davlatbekqudratov1984@gmail.com](mailto:davlatbekqudratov1984@gmail.com)

*QarDU professori, t.f.d B.Eshov taqrizi asosida*

## NEW STAGE OF ECONOMIC DEVELOPMENT OF KARAKALPAKSTAN IN THE YEARS OF INDEPENDENCE

### Annotation

The article analyzes the path of Karakalpakstan's transition to market relations, as a result of which the state-political and economic construction of the country was reformed, in addition, active work on improving legislation aimed at creating a favorable investment climate and promoting the development of international trade is shown.

**Key words:** Reform, economy, investment, international organizations, market economy.

## НОВЫЙ ЭТАП ЭКОНОМИЧЕСКОГО СТРОИТЕЛЬСТВА КАРАКАЛПАКСТАНА В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

### Аннотация

В статье анализируется путь перехода Каракалпакстана на рыночные отношения, в результате которой была реформировано государственно-политическое и экономическое строительство страны, кроме того, показана активная работа над усовершенствованием законодательства, направленного на создание благоприятного инвестиционного климата и содействие развитию международной торговли.

**Ключевые слова:** Реформа, экономика, инвестиция, международные организации, рыночная экономика.

## MUSTAQILLIK YILLARIDA QORAQALPOG'ISTON IQTISODIYOTI TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHI

### Annotatsiya

Maqolada Qoraqalpog'istonning bozor munosabatlari o'tish yo'li tahlil qilinib, buning natijasida mamlakatning davlat-siyosiy va iqtisodiy tuzilmasi isloh qilindi, shuningdek, qulay investitsiya muhitini yaratishga qaratilgan qonunchilikni takomillashtirish va investitsiyalarni rivojlantirishga ko'maklashish bo'yicha faol olib borilgan ishlar chuqr tahlil qilindi. Xalqaro savdoning rivojlanishi uchun yaratilgan shart-sharoitlar natijasida iqtisodiyotning zamonaviy tarmoqlarida jadal rivojlanayogan sohalar, mahalliy ishlab chiqarish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** Islohot, iqtisodiyot, sarmoya, xalqaro tashkilotlar, bozor iqtisodiyoti.

**Kirish.** Mustaqillikka erishish Qoraqalpog'iston xalqi uchun iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot, madaniy va ruhiyangilanish yo'lida keng imkoniyatlар ochdi. XX asrning 90-yillarining o'rtalarida respublikadagi mavjud vaziyatni haqqoniy baholagan holda, Qoraqalpog'iston davlat va siyosat, iqtisodiyot sohasida yangi bosqichga qadam qo'yanini aytish mumkin. Bu davrda huquqiy davlatni shakllantirish yo'lidi dastlabki aniq qadamlar qo'yildi, bozor iqtisodiyotiga o'tishga qaratilgan islohotlar amalga oshirildi. Xalq xo'jaligida bozor munosabatlari mos keluvchi o'zgariishlar amalga oshirildi. Hukumat tomonidan bozor munosabatlari rivojlanishining huquqiy asosini tashkil etuvchi qonunlarni to'liq ishga tushirishga qaratilgan muhim qarorlar qabul qilindi. Natijada ko'p tarmoqli iqtisodiyot shakllanib, turli xil mulk shakllarining teng huquqli mavjudligiga asoslangan iqtisodiy tizim yaratildi.

Bu jarayon, shubhasiz, turli qiyinchiliklar bilan to'qnash keldi, masalan, mutaxasislar tayyorlash, mulkdorlik munosabatlarini qayta shakllantirish, hamda yangi boshqaruv modellarini joriy qilish kabi hal qilinishi lozim bo'lgan ayrim kichik muammolar mavjud edi. Shu boisdan dastlabki kunlardan aniq rejalaridan iborat va uzoqni ko'zlagan choratadbirlar amalga oshirildi. Ammo shuni alohida ta'kidlash kerakki, bu qadamlar Qoraqalpog'istonning iqtisodiy o'sishi va barqaror taraqqiyoti uchun asos bo'lib xizmat qildi, shu jumladan, respublikani turli xalqaro va mintaqaviy iqtisodiy tizimlarga integratsiya qilish yo'lida muhim qadamlar tashlandi.

Shu bilan birga, mustaqillikka erishganidan so'ng, Qoraqalpog'iston yangi taraqqiyot imkoniyatlari sari qadam

qo'yanini va o'tish davrining qiyinchiliklari qaramay, respublika iqtisodiy va ijtimoiy tashkilotlarning yangi modelini qurishda ilgarilaganini aytish mumkin. O'z navbatida, iqtisodiyotning muhim sohalarida yuz bergan tub o'zgarishlar, XX asrning 90-yillarining ikkinchi yarmida rivojlanishning keyingi, sifat jihatidan yangi bosqichiga o'tish uchun mustahkam boshlang'ich sharoitlarni yaratishga imkon berdi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Qoraqalpog'iston Respublikasining mustaqillik yillaridagi iqtisodiy taraqqiyotining ayrim jihatlarini o'rghanish B.A. Ko'shanov, T.A. Ametov kabi mualliflarning ilmiy ishlarida atroflichha tahlil qilingan [1].

Qoraqalpog'iston Respublikasida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish masalalarini chuqr tadqiq qilish, tashqi omillar ta'siri, qishloq xo'jaligi sanoati, xizmatlar sohasi va ish bilan ta'minlashni modellash bo'yicha ilmiy asarlar yaratildi. Ushbu sohalarda tadqiqotlar olib borgan olimlar Z.K. Usmonova, M.A. Niyazov, K. Bektemirov, N. Xudaybergenovlarni alohida ko'rsatib o'tish lozim [2].

Masalan, Z.K. Usmonova va M.A. Niyazovning «Qoraqalpog'iston Respublikasida sanoatni rivojlantirishning ustuvor yo'naliishlari» maqolasi Qoraqalpog'iston Respublikasida sanoatni rivojlantirishning ba'zi jihatlarini yoritib beradi. Ushbu maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasining turli hududlarida sanoat tarmoqlarining rivojlanish tendensiyalarini taqqoslash tahlili o'tkazilgan. Tahlil natijalari bo'yicha xulosalar chiqarilib, hududlar va sanoat tarmoqlari mutaxassisligi tuzilmasini takomillashtirish

orqali ichki rivojlanish omillaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar keltirilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotda solishtirma tahlil, davlat va huquqiy modellash, shuningdek, analitik, axborot ma'lumotlari va ilmiy adabiyotlar metodlari quo'llanildi.

**Tahsil va natijalar.** Rivojlanish jarayonida Qoraqalpog'iston Respublikasi tadbirdorlik faolligini rag'batlantirish va iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlashga qaratilgan bir qator qonunlar qabul qildi. Muhim bosqichlardan biri kichik biznesni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash haqida qonunning qabul qilinishi bo'ldi, ushu qonun kichik korxonalar va yakka tartibdag'i tadbirdorlar uchun moliyaviy va tashkiliy yordamning turli mexanizmlarini taqdirm etdi.

Boshqa muhim qonunchilik faoliyati sohasi bozorni tartibga solishdir. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlarga a'zo bo'lish va xalqaro savdoda ishtirot etish qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirishni hamda tovarlar va xizmatlarning erkin aylanishini ta'minlashni talab qiladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi qonunchilikni takomillashtirish, investitsiya uchun qulay muhit yaratish va xalqaro savdoni rivojlanishiga ko'maklashish bo'yicha faol ish olib bormoqda.

Respublikada to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish uchun eng qulay investitsiya muhitini yaratish maqsadida iqtisodiyotni liberalizatsiya qilish, davlat boshqaruvini isloh qilish, tadbirdorlik sub'ektlarining faoliyatiga aralashishni cheklash, litsenziyalash va ruxsatnomaga berish jarayonlarini soddallashtirish va qisqartirish, tovarlar (ishlar va xizmatlar) erkin aylanishini ta'minlash hamda hududlarda zarur infratuzilma yaratish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Tezlashtirilgan sur'atlar bilan soliq siyosatini va bojxona-tarif tartibini isloh qilish amalga oshirilmogda, bu esa soliq yukini kamaytirish va investorlar uchun soliq tizimini soddallashtirish, sog'lom raqobat muhitni yaratishga qaratilgan.

Biroq, hali ham investorlarga, ayniqsa hududlarda, byurokratik to'siqlar va ayrim muammolar mavjud bo'lib, bu esa hokimiyatlarning barcha darajalari tomonidan investorlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi, tegishli vazirliklar va idoralar o'rtaida ishlarni aniq muvofiqlashtirishning yo'qligi natijasida yuzaga keladi. Bu esa davlat siyosatining investitsiya uchun qulay muhitni yaratish bo'yicha izchilligiga bo'lgan ishonchni mustahkamlashga to'sqinlik qiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida 1990-yillarda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish dasturiga muvoofi, sanoat korxonalarini xususiyashtirish, monopolistik ishlab chiqarish-iqtisodiy tuzilmalarini bo'lish, raqobatbardosh bozor muhitni yaratish, davlat mulkini xususiyashtirish jarayonida keng qatlamlarni ishtirotkini ta'minlash va qimmatli qog'ozlar bozorini shakllantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlarni amalga oshirildi [3].

Sovet Ittifoqining 1991 yilda qulashi bilan Qoraqalpog'iston iqtisodiyoti yangi chaqiriplarga duch keldi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish moliyaviy muassasalarini yangi sharoitlarga moslashtirishni talab qilar edi. Shu davrda birinchi tijorat banklari tashkil etilib, ular keng turdag'i moliyaviy xizmatlarni, masalan, kreditlar, depozit hisob va varaqlari va investitsion mahsulotlarni taklif qila boshladи.

Qoraqalpog'iston uchun bozor munosabatlariga kirish jarayoni zarur bo'lsa-da, bu o'tish uchun u milliy, demografik va mahalliy xususiyatlarni hamda aholining iste'mol imkoniyatlarini hisobga olgan holda o'zining yo'lini tanladi. Bozor munosabatlariga o'tishni narx-navo islohotisiz tasavvur etish mumkin emas edi. Chakana narxlar ishlab chiqarish va mahsulotni sotish xarajatlarini qoplash, har bir samarali ishlayotgan jamoaga zarur foyda va maosh darajasini

ta'minlashni ko'zda tutishi kerak edi. Aks holda, ishlab chiqarish pasayishi va bankrotlikka olib kelishi mumkin edi [4]. 1990-yillarning boshlarida, mustaqillikdan oldin, Qoraqalpog'iston Respublikasida deyarli har qanday xalq xo'jaligi tarmog'i o'z-o'zin moliyalash sharoitida foyda keltirmagan. Ilmiy-tehnik taraqqiyot sekin rivojlanar edi. Sanoatning ishlab chiqarish quvvatlaridan faqat 72% foydalanilgan. Kapital qurilishida 55 million rubl investitsiyalar o'zlashtirilmagan, qurilish va montaj ishlari esa 31 million rubl yetishmayotgan edi. Qurilish birlashmalarining (masalan, «Aralvodstroy», «Aralseylozvodprovodstroy» va boshqalar) Nukus, Taxiatosh, Qo'ng'iroq, Chimboy, To'rtko'l shaharlari joylashganligi natijasida qishloq va tuman markazlarining obodonlashtirish ishlari orqada qolgan. Sanoat sohasida respublikada joylashgan barcha 98 ta korxona SSSR va O'zbekistonning vazirliklari va idoralariga to'g'ridan-to'g'ri bo'ysundirildi. Gazli-Uralskiy va O'zbekiston-Rossiya gaz quvurlarining qurilishi bilan hamda tabiiy gazning o'z hududida qazib olinishi va ishlab chiqilishi tufayli Qoraqalpog'iston hududida tabiiy gaz keng qo'llanila boshlandi [5].

Shuni ta'kidlash kerakki, Qoraqalpog'istonda oylik ish haqi SSSR darajasidan ancha past edi: 1990 yil davomida u 200 rubni tashkil etgan, O'zbekistonda esa bu ko'rsatkich 270 rubl bo'lgan. Bu esa, Qoraqalpog'iston aholisi daromadining yanada pastroq ekanligini anglatadi, chunki har bir oilada o'rtacha 7 kishi bo'lgan [6].

SSSR miqyosida asosiy oziq-ovqat mahsulotlari iste'molining ahvoliga keladigan bo'lsak, Qoraqalpog'istonda go'sht, sabzavot va mevalar kabi mahsulotlar iste'moli ancha past bo'lgan. Ushbu mahsulotlarning defitsiti aholi tomonidan non va unli mahsulotlar hisobiga qoplangan. Natijada iqtisodiy sohada jinoyatlar soni keskin oshdi. Xususan, iqtisodiy jinoyatlar soni Nukus shahri, Xo'jayli, To'rtko'l, Chimboy, Ellikqal'a va Beruniy tumanlarida sezilarli darajada ortdi [7].

Boshqa bir muammo shundaki, Qoraqalpog'iston sanoat mahsulotlarning o'zini o'zi ishlab chiqarish darajasi bo'yicha respublikada oxirgi o'rnlardan birini egallagan. Masalan, oziq-ovqat bo'lмаган iste'mol mollari ishlab chiqarilishi O'zbekistondagi o'rtacha darajadan 7 baravar kam edi [8]. Ko'plab iste'mol tovarlari va deyarli barcha ishlab chiqarish texnik maqsadlar uchun mo'ljallangan mahsulotlar tashqaridan olib kelinishi zarur edi.

1995-2000 yillar davomida Qoraqalpog'iston iqtisodiyotida ba'zi tuzilma o'zgarishlari sodir bo'ldi, bu esa iqtisodiyotda band bo'lganlar sonining 12% ga o'sishi va moddiy ishlab chiqarish sohalarida — qishloq xo'jaligi, qurilish, ayniqsa, moddiy ishlab chiqarishning boshqa tarmoqlarida mehnat resurslarining sezilarli o'sishida aks etdi. Nooziq-ovqat tarmoqlarda, moddiy ishlab chiqarishning xizmatlar sohasida band bo'lganlar soni 41,4% ga o'sdi. Qoraqalpog'iston Respublikasida mehnat resurslarini taqsimlash va foydalanishda yuz bergan o'zgarishlar mehnat bozoriga, ayniqsa, ishchi kuchi talab va taklifining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatdi. Xususan, uy-kommunkatsiya xizmatlari va aholi turmushini ta'minlovchi nooziq-ovqat sohalarda ishlovchilarining soni 30% ga oshdi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining investitsions jozibadorligi ham alohida ahamiyatga ega edi. Masalan, 2007-yilda Qoraqalpog'iston ga 28 milliard so'm chet el investitsiyalari jalb qilingan bo'lib, bu mamlakat bo'yicha barcha investitsiyalarning 2,2% ni tashkil etdi. Investitsiyalarning taxminan 80% ni xususiy korxonalar va tadbirdorlar amalga oshirdi, faqat 5% ni chet el investorlaridan kelgan. Shu yilning o'zida, Qoraqalpog'istonning O'zbekiston respublikasi umumiyl savdo aylanmasidagi ulushi 0,8% ni tashkil etdi, shu jumladan, barcha eksportning 1,2% va importning 0,3%ni tashkil etdi. 2005-yilda

Qoraqalpog'istonidan eksport qilingan mahsulotlarning 86% ni paxta tashkil etdi [9].

2017-yildan boshlab, Qoraqalpog'iston iqtisodiyotidagi investitsiya faolligi o'sish bilan tavsiflanadi. 2017–2020 yillar davomida mintaqaning asosiy kapitaliga kiritilgan umumiy investitsiyalar 3,7 baravarga oshdi va 8167,4 milliard so'mni tashkil etdi [10]. Bunday investitsiya o'sishi davlat tomonidan amalga oshirilgan iqtisodiyotning muhim tarmoqlarini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida erishildi. Bu esa o'z ichiga strukturaviy islohotlarni amalga oshirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va diversifikatsiya qilish, yuqori texnologik quvvatlarni tezlashtirilgan joriy etish, shuningdek, mintaqalarda sanoat salohiyatini kuchaytirish va transport va kommunikatsiya infratuzilmasini yanada rivojlantirishni taqozo etadi.

Biroq, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi oshgan bo'ssa-da, 2020-yilga kelib, 2019-yilga nisbatan investitsiyalar o'sish sur'ati 19,6% ga pasaygan. Investitsiyalarning oqimini rag'batlantirish maqsadida bir qator kafolatlar, imtiyozlar va preferensiyalar taklif etilmoqda. Masalan, neft va gaz qidiruvini amalga oshirayotgan xorijiy kompaniyalar geologik qidiruv ishlari davomida barcha turdagi soliqlardan va davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy to'lovlardan ozod qilinadi, shuningdek, uskunalar va sarf materiallarini import qilishda bojxona to'lovlaridan (bojxona rasmiylashtiruvchi uchun yig'imdan tashqari) ozod qilinadi. Ularning pudratchilari va O'zbekistondagi yetkazib beruvchilar esa qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan 2021-yil 18-mayda Birlashgan Millatlar Tashkilotining maxsus rezolyutsiyasi qabul qilindi, unda "Orolbo'y"i mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar zonasini deb e'lon qilish" masalasi ko'tarildi [11]. Hozirgi kunda ushbu rezolyutsiya doirasida Qoraqalpog'istonga texnik yordam va

gumanitar yordam ko'rsatishda xalqaro hamkorlar bilan samarali ishlar olib borilmoqda. Shuningdek, O'zbekiston hukumatining tashabbusi bilan "Birlashgan Millatlar Tashkilotining ko'p tomonlama ishonch jamg'armasi" Qoraqalpog'istondoning ekologik xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan ishlarni tashkil qilmoqda. Ushbu jamg'arma doirasida barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish bo'yicha bir qator dasturlar amalga oshirilmoqda. O'zbekistonning diplomatik missiyalari xalqaro hamkorlardan mablag' jalb qilish maqsadida faoliyat olib bormoqda. 2022-yil 1-iyul holatiga ko'ra, jamg'armaga jalb qilingan jami mablag'lar 26,1 million AQSh dollarini tashkil etdi (Norvegiya – 1,1 million dollar, Finlyandiya – 1 million evro, BAA – 10,7 million dollar, Saudiya Arabistoni – 0,2 million dollar, Yaponiya – 3,2 million dollar, Koreya – 1 million dollar, Yevropa Ittifoqi – 5,5 million dollar va boshqalar).

Moliyaviy-teknik yordam va imtiyozli grantlar bo'yicha, Xitoy Xalq Respublikasining Xalqaro Hamkorlik Agentligi va Xitoy Milliy Ilm-Fan Akademiyasi Qoraqalpog'istonda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantrish va Orolbo'y florasi va faunasini o'rganishga 1,5 million dollar yordam ko'rsatmoqda. Koreyaning Xalqaro Hamkorlik Agentligi (KOICA) bilan hamkorlikda Qoraqalpog'istonda ekologik tiklash loyihasi amalga oshirilmoqda, loyiha umumiy qiymati 5,9 million dollarni tashkil qiladi. Yaponianing Xalqaro Hamkorlik Agentligi 7,9 million dollar miqdorida tibbiyot infratuzilmasini yaratish (pediatriya instituti filialini tashkil etish va Kegayli tumanidagi tibbiyot birlashmasini jihozlash) loyihasini moliyalashtirmoqda.

**Xulosa va takliflar.** Qoraqalpog'iston mintaqasining investitsion jozibadorligi uning raqobatbardoshligini belgilaydi. Mintaqaga investitsiyalar oqimining oshishi ishchi kuchi ishlab chiqarish samaradorligini va aholi turmush sifatini yaxshilash uchun asos yaratadi.

## ADABIYOTLAR

- Koshonov B. A., Ametov T. A. "O'zbekiston Respublikasining yangi tarixiga oid risolalar". – Nukus: Qoraqalpoq'iston, 2015.
- "Qoraqalpoq'iston ASSR Yuqori Sovetining majlislari". O'n ikkinchi chaqiriq to'rtinchchi sessiya. 1990 yil 14-15 dekabr. Stenografik hisobot. – Nukus: Qoraqalpoq'iston, 1996. – 26-bet.
- Umarova K. "Suverinitet Karakalpakstana: deklaratсиya va qonun" // "Qoraqalpog'iston Fanlar Akademiyasi xabarları". – Nukus, 1998. – №2-3. – 122-bet.
- "Xalq so'zi", 5 yanvar 1991 yil.
- Arxiv "Jo'qorgi Kengash Respublika Karakalpakstan", f.1, op.1, d.14, l.15.
- "Qoraqalpoq'iston Respublikasi Yuqori Sovetining majlislari". XII chaqiriq XII sessiya. 1993 yil 9-10 aprel. Stenografik hisobot. – Nukus: Qoraqalpoq'iston, 1995. – 51-bet.
- Ametov, T. A. " Qoraqalpoq'iston Respublikasining Yuqori qonun chiqaruvchi organining faoliyati 90-yillarning o'rtaalarida" // "Hozirgi zamon ilmiy tadqiqotlari". – 2018. – №7-3(39). – 6-10-bet.
- "Pravda Vostoka", 12 yanvar 1996 yil.
- Berkinov B.B., Saburova N.R. "Qoraqalpoq'iston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati va istiqbollari" // "Iqtisodiy aloqalar". – 2022. – Tom 12. – №1. – 85-98-bet.
- Asadov X.S. "O'zbekiston mintaqalari iqtisodiy rivojlanishining hozirgi tendensiyalari" // "Markaziy Osiyo iqtisodiyoti". – 2020. – №4(3). – 251-262-bet.
- "Orolbo'y mintaqasidagi ehtiyojlar va talablar". Ijtimoiy-iqtisodiy so'rovning hisobotlari. Nukus, 201. [Elektron manba]. URL: [<https://www.uz.undp.org/content/uzbekistan/ru/home/library/poverty/summary-project-report-on-a-socio-economic-survey-of-the-needs>] (<https://www.uz.undp.org/content/uzbekistan/ru/home/library/poverty/summary-project-report-on-a-socio-economic-survey-of-the-needs>) (so'rov vaqt: 02.09.2021).



**Sharofiddin MAMATOV,**

Guliston davlat universiteti katta o'qituvchisi

E-mail: [mamatov0766@gmail.com](mailto:mamatov0766@gmail.com)

GulDU dotsenti Q.Almanov taqrizi asosida

## SOME FEATURES OF THE RURAL SYSTEM IN CENTRAL ASIA IN THE EARLY AND DEVELOPED MIDDLE AGES

### Annotation

This article examines the rural life, infrastructure and lifestyle of the population of Central Asia in the V-XII centuries. The information on the geographical location, structure and economic situation of the states and villages existing in the region during the early Middle Ages and advanced Middle Ages is analyzed based on Arabic, Persian, Sogdian and Chinese written sources. Also, the lifestyle of the settlements along the Syrdarya River and the road system between the villages are described in detail. The classifications of Arab and Persian geographers in the sources lay the groundwork for the analysis of villages in terms of culture, economy and geography.

**Key words:** Central Asia, rural history, Ferghana Valley, Arab and Persian geographers, Syrdarya oasis, early Middle Ages, advanced Middle Ages, rural infrastructure, lifestyle, written sources.

## НЕКОТОРЫЕ ОСОБЕННОСТИ СЕЛЬСКОГО СТРОЯ В СРЕДНЕЙ АЗИИ В РАННЕМ И РАЗВИТОМ СРЕДНЕВЕКОВЬЕ

### Аннотация

В данной статье рассматривается сельская жизнь, инфраструктура и образ жизни населения Средней Азии в V-XII веках. На основе арабских, персидских, sogдийских и китайских письменных источников анализируются сведения о географическом положении, структуре и экономическом положении государств и деревень, существовавших в регионе в период раннего средневековья и раннего средневековья. Также подробно описан быт поселений вдоль реки Сырдарья и система дорог между селами. Классификации арабских и персидских географов в источниках закладывают основу для анализа деревень с точки зрения культуры, экономики и географии.

**Ключевые слова:** Средняя Азия, сельская история, Ферганская долина, арабские и персидские географы, Сырдаринский оазис, раннее средневековье, развитое средневековье, сельская инфраструктура, уклад жизни, письменные источники.

## ILK VA RIVOJLANGAN O'RTA ASRLARDA O'RTA OSIYODA QISHLOQ TIZIMINING AYRIM XUSUSIYATLARI

### Annotatsiya

Mazkur maqolada V–XII asrlarda O'rtta Osiyoning qishloq hayoti, infratuzilmasi va aholi turmush tarzi o'rganiladi. Ilk o'rtta asrlar va rivojlangan o'rtta asrlar davrida hududda mavjud bo'lgan davlatlar, qishloqlar geografik joylashuvi, tuzilishi va iqtisodiy ahvoliga oid ma'lumotlar arab, fors, sug'diy va xitoy yozma manbalaridan kelib chiqib tahlil qilinadi. Shuningdek, Sirdaryo bo'yidagi aholi maskanlarining turmush tarzi va qishloqlar o'rtasidagi yo'llar tizimi haqida batafsil bayon etilgan. Manbalardagi arab va fors geograflarining tasniflari qishloqlarni madaniy, iqtisodiy va geografik jihatidan tahlil qilishga zamin yaratadi.

**Kalit so'zlar:** O'rtta Osiyo, qishloqlar tarixi, Farg'ona vodiysi, arab va fors geograflari, Sirdaryo vohasi, ilk o'rtta asrlar, rivojlangan o'rtta asrlar, qishloqlar infratuzilmasi, turmush tarzi, yozma manbalar.

**Kirish.** O'rtta Osiyo xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti tarixi boy va serjilo bo'lib, uning turli davrlari o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Xususan, ilk o'rtta asrlar (V–VIII asrlar) va rivojlangan o'rtta asrlar (IX–XII asrlar) ushbu mintaqaning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy jihatlari shakllangan davrlar sifatida alohida o'rinn tutadi. Mintaqaning tarixiy qishloqlari – ularning geografik joylashuvi, tuzilishi, infratuzilmasi, xo'jalik faoliyati, etnik tarkibi va diniy e'tiqodi to'g'risida xitoy, sug'diy, arab va fors tillaridagi yozma manbalar qimmatli ma'lumotlar beradi. Arab-fors geograflarining asarlari IX–XII asrlar qishloqlarining rivojlanish jarayonlarini o'rganishda alohida ahamiyat kasb etadi. Ular Movarounnahring tarixiy viloyatlarida joylashgan qishloqlarning ko'lami, iqtisodiy faoliyati va aholisining yashash tarzi haqida batafsil ma'lumotlarni o'zida mujassam etgan.

Ushbu maqolada ilk va rivojlangan o'rtta asrlar davrida O'rtta Osiyo qishloqlarining o'ziga xos xususiyatlari, ularning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotdagi o'rni, shuningdek,

yozma manbalar va arxeologik dalillar asosida Farg'ona vodiysi, Shosh vohasi va Sirdaryo havzasidagi qishloqlarning ahvoli tahlil qilinadi. Mavzuning tadqiqi nafaqat tarixiy haqiqatlarni yoritadi, balki o'sha davrining madaniy merosi va o'ziga xosligini anglashga xizmat qiladi.

- **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O'rtta Osiyo qishloqlarining o'ziga xos xususiyatlari – geografik joylashuvi, tuzilishi, ko'lami, infratuzilmasi, kasb-kori, xo'jaligi, maishiy hayoti, aholisining etnik tarkibi, diniy mansubligi va hokazolar bilan bog'liq ma'lumotlar xitoy, sug'diy, arab, fors kabi turli tillardagi yozma manbalarda saqlanib qolgan[1]. Biroq O'rtta Osinyoning ilk o'rtta asrlar davri qishloqlarining bu kabi o'ziga xos xususiyatlari doir yozma ma'lumotlar nisbatan kam etib kelgan, rivojlangan o'rtta asrlar uchun esa aksincha bo'lib, bu davr qishloqlariga tegishli ma'lumotlarning katta qismi arab va fors tillaridagi geografik asarlardir[2]. IX – XII asrlarda mintaqaga kelib ketgan Ibn Havqal, Muqaddasiy, Istaxriy, Ibn Xurdodbeh, Ya'qut kabi arab-fors geograflari asarlarida har bir tarixiy

viloyat tarkibidagi qishloqlarning joylashuv o'rni, iqlimi, tuzilishi, aholisi va uning maishiy hayoti, umuman olganda, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotiga doir ko'plab ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu geograflarning deyarli barchasi mintaqaning har bir viloyatida o'nlab rustoq – tumanlar borligi, ulardan har biri o'nlab qishloqlarga egaligiga urg'u berar ekan, Buxoro, Samarqand, Farg'ona, Shosh kabi tarixiy-geografik viloyatlarida mavjud aholi maskanlari bir-biriga tutashib ketgan qishloqlardan iborat ekaniga urg'u beradilar. Masalan, Istashriy bu haqda shunday yozgan: "Movarounnahrda Farg'ona qishloqlaridan kattarog'i yo'q, aholisi ko'pligi, chorvalari va ekinzorlari yoyilib ketganidan bitta qishloq hududi 1 marhalaga etadi. Farg'ona viloyatlari, ularning bir nechta shahari, har bir shaharning bir nechta qishlog'i bo'lgan rustoqi bor" [3]. O'rta Osiyoda qishloqlarning soni va ko'lami bo'yicha arab va fors manbalarida keltirilgan ushbu ma'lumotlar rivojlangan o'rta asrlarga to'g'ri kelsa-da, ayrim dalillar va omillardan kelib chiqib, Farg'ona vodiysi ilk o'rta asrlarda ham shunday xususiyati bilan alohida ajralib turganini ilgari surish mumkin. Jumladan, ilk o'rta asrlarga tegishli xitoy yilnomalarida Davan (Farg'ona vodiysi)da shaharlar va yirik aholi maskanlari – qishloqlar ko'pligiga alohida urg'u berilgani bu qarashni tasdiqlaydi[4]. Bir qator arab manbalarida "Qishloqlarning ko'pligi bo'yicha Movarounnahrda Farg'onaga teng keladigani yo'q. Aholisining ko'pligidan qishloqlarning ayrimlari adog'i yo'qdek. Uni (shundoq qishloqni) o'tish uchun bir kun yo'l yurish kerak bo'ladi" [5] deb ta'kidlanishiga tayanib o'sha chog'larda ham ayrim vodiylar qishloqlarining ko'lami ancha keng bo'lganini tasavvur qila olamiz. Shu o'rinda ayтиб o'tish kerak, arab-fors geograflari asarlarida uzunlik yoki masofa o'lchovlari uchun bir qator atama va iboralar ishlatalgan bo'lib, "marhala", "farsax" ular orasida eng katta o'lchov birliklari bo'lgan. Yuqorida Istashriy asarida o'rin olgan Farg'onadagi bitta qishloqning uzunligi 1 marhalaga etishi to'g'risidagi ma'lumotdan anglashiladi, o'sha kezlarda mintaqada eng ko'p va eng katta qishloqlarga ega vodiyning ayrim qishloqlarining ko'lami 20-35 km ni tashkil etgan. Arab tilida "marhala" (مرحلة) so'zi "o'tish" degan ma'noni bildirgan bo'lib, o'rta asrlarda bir kunda bosib o'tishi mumkin bo'lgan masofaga aytilgan. 1 marhala karvonning qanday hududdan yurishiga qarab 3 dan 5 farsaxgacha bo'lgan masofani tashkil etgan. 1 farsax ko'pincha 6-7 km yoki 8 km uchun qo'llanilganidan kelib chiqilsa, 1 marhala 30 km atrofida bo'lgani anglashiladi[6]. Farg'ona vodiysida bunday yirik qishloqlarning mavjud bo'lganini yuqorida yozma manbalardan keltirilgan ayrim qishloqlarni bosib o'tish uchun bir kun yo'l yurilishi haqidagi ma'lumot tasdiqlaydi[7]. Yozma manbalarda Farg'ona vodiysining rustoqlari haqida so'z borganda vodiyning nisbatan chetda joylashgan ma'muriy birliklaridan biri bo'lmish Suxda 60 ta qishloq borligi, vodiyning siyosi, iqtisodiy va madaniy markazi bo'lgan Axsikatda "ko'plab qishloqlar bor" ligiga to'xtalib o'tiladi. Shunga o'xshash ma'lumot islomdan oldingi davrlarda Farg'ona vodiysining siyosi markazlaridan biri bo'lgan Koson haqida ham keltirilgan[8]. Yozma manbalarda bиргина Sux rustoqining o'zida 60 qishloq borligiga urg'u berilishi va undan yirik rustoqlarda esa "qishloqlar soni ko'pligi" ayтиб o'tilishidan kelib chiqilsa, o'sha kezlarda mintaqada qishloqlar soni qanchalik ko'p bo'lganini tasavvur qilish mumkin.

- **Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolada ilk va rivojlangan o'rta asrlarda O'rta Osyo qishloqlarining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy xususiyatlari o'rganishda kompleks yondashuv qo'llanildi.

- **Tahlil va natijalar.** Sirdaryo daryosining yuqori, o'rta va quiyi havzasida joylashgan aholi maskanlari orasida shaharlar soni qishloqlar soniga nisbatan ancha kam bo'lgan, biroq bu holat ushbu daryodan suv oluvchi barcha hududlarda

birday bo'Imagan. Farg'ona vodiysida yirik qishloqlar soni boshqa hududlarga nisbatan ancha ko'p bo'lsa, Shosh vohasida esa o'rta kattalikdagi shaharlar soni ancha ko'pchilikni tashkil etgan. Sirdaryoning o'rta havzasi – O'tror vohasi va unga qo'shni hududlarda esa qishloqlar birmuncha siyrak bo'lib, Sabron (Savron), Sug'naq (Sig'noq), Yassi, Qarnoq, Iqon, Sutkent kabi shahar yoki yirik aholi maskanlari orasida qishloqlar nisbatan kamroq bo'lgan ko'rindi. Ibn Havqalning yozishicha: "Borob (Forob) – uzunligi va eni bir kunlik (yo'l)dan kamroq bo'lgan nohiyadir. Unda (harbiy) kuch va odamlarning (soni) ko'p. Bu nohiyada tuproq sho'r bo'lib, unda chakalakzorlar (ko'p). Ekinzorlar ash-Shosh (Sirdaryo) daryosidan suv oluvchi (bir) daryo vodiysida joylashgan. ... Sabron shahrida g'o'z (o'g'uz)lar tinchlik bo'lgan vaqtida sulh (tuzish), yarashish va tijorat qilish uchun to'planadilar. ... Sutkend ash-Shosh daryosining g'arb tomonida (joylashgan). Unda minbar (bor). Bu turklarning to'plangan eridir. Islom (yo'li)ga g'uzlar va xarluxlarning bir qismi kirgan. Ular turklarga (qarshilik) ko'rsatishda shijoatli va qudratlidir. Borob (Forob), Kanjida va ash-Shosh o'tasida hosildor yaylovlar (joylashgan) bo'lib, ularda islam dinini qabul qilgan turklarning mingga yaqin uylari (bor). Ular o'z udumlariga binoan (qurilgan) o'tovlarda yashaydilar. Ularda (hech qanday) binolar yo'q" [9].

Sirdaryo daryosi havzasidagi tarixiy viloyatlarda ham qishloqlarning holati taxminan shu holatda bo'lib, Shosh viloyati bilan bog'liq arab va fors geograflari asarlarida o'rinni olgan quyidagi ma'lumot diqqatni o'ziga tortadi: "Shosh va Ilaq kengligi ikki kunga uch kunlik yo'ldir. Uning imoratlari va minbarlari bor qishloqlari, tekisliklari o'tloqlari va ko'kalamzorlari ko'p. Shosh va Iloq shaharlarining darvozalari, devorlari, rabadlari, kuxandizlari, daryolari bir-biriga tutashib ketgan" [10].

Ushbu ma'lumotlardan ko'rinadiki, O'rta Osiyoning barcha vohalaridagi viloyat va rustoqlardagi qishloqlar asosan paxsadan qilingan imoratlardan iborat bo'lib, ularning ko'pchilikini aholi turarjoylari – uylar tashkil etgan [11]. Biroq mintaqaning bir qator tarixiy viloyatlardan farqli o'laroq Sirdaryoning o'rta havzasidagi ko'chmanchi aholining uylari o'tov (chodir) bo'lgan. Ayniqsa, O'tror vohasidagi o'g'uz turklari va Isfijob (Sayram) tomonlardagi xarlux (qarluq) turklarining ko'pchiligi o'tovlarda yashab, ular muayyan bir hududda muqim turmay, yaylovlar bo'ylab ko'chib yurganlar. Ibn Havqal urg'u bergenidek, turklarning ming uysi (o'tovda yashovchi) qismi islam diniga o'tgan bo'lsalar-da, o'zlarining an'anaviy yashash yo'sinini o'zgartirmasdan, chorva mollarini o'tlatish uchun yaylovdan-yaylovga ko'chib yurishni to'xtatmaganlar. Bunday yashash tarzi turkiylarning katta bir qismini tashkil etgan Evroosyo kengliklarida, ya'ni Qora dengiz bo'yłari, Shimoliy Kavkaz, Volgabo'y, Sirdaryoning quiyi va o'rta havzalari, Taroz (Ettisuv), Sharqiy Turkiston, Olttoy va O'ruxun vodiysi (Mo'g'uliston)da ko'chmanchilarining barchasi uchun xos bo'lgan. Ibn Havqal "at-Taroz musulmon bo'lgan turklarning savdo qiladigan eridir. (Turk)larning erlarida (at-Taroz)ga qarashli istehkomlar (joylashgan). Islom (mamlakatlari)dan hech kim u erdan (nariga) o'tmagan, chunki undan (nariga) o'tgan (yo'lovchi) xarluxlarning o'tovlari kirib boradi. Bu nohiyaning yuqorida zikr etilgan (shaharlari) ash-Shosh (viloyati) va uning chekkalariga kiradi" [12]. Arab va fors geograflari mintaqaning shahar va qishloqlarini tafsiflar ekan, asosan Sirdaryo daryosining shimol va shimoli-sharq tomonidagi joylar aholisining ham o'troq aholi yashaydigan qishloqlari, ham ko'chmanchi turmush tarziga ega, muayyan bir erga vaqtincha chodir qurgan chorvadorlar maskanlari haqida to'xtalib o'tadi. Qizig'i shundaki, aholining bu yo'sindagi ikki xil yashash manzillari mintaqaning boshqa hududlari, shu jumladan, Buxoro, Samarqand, Shosh yoki Farg'ona uchun ishlatilmaydi.

Ilk va rivojlangan o'rta asrlarda O'rta Osiyo shaharlarida ham, qishloqlarida ham aholi turar-joylari – uylar asosan loy "paxsa"dan qurilgan. Sirdaryoning o'rta havzasiga yaqin Isfijob (Sayram) shahri bo'yicha yozar ekan Ibn Havqal "(shaharning) binolari paxsadan (qurilgan)" deya urg'u beradi[13]. O'sha kezlarda shaharlar va yirik qishloqlar orasidagi farq – shaharlarda egallagan maydoni anchka keng bo'lib, ularning deyarli barchasida boshqaruv markazi – ark, mudofaa devori, yirik savdo rastalari – bozorlari, hibsxona, jamoaviy ibodat erlari bo'lgan. Qishloqlarning ayrimlarida ham shunga o'xshash xususiyatlari bo'lsa ham, ko'pchilik qishloqlar o'z tuzilishiga ko'ra birmuncha sodda bo'lib, ular uchun aholi turar-joylari – uy va hovlilar, bog' va ekinzorlar xos bo'lgan.

Bu davrda O'rta Osiyodagi har bir tarixiy geografik viloyat orasida qatnov yo'llari bo'lib, ular bir-biriga ulanib ketgan edi. Amudaryoning yuqori va o'rta havzasidan boshlab, Termiz, Chag'oniyon (Denov), Naxshab va Kesh, Buxoro va Samarqanddan Karmana, Nur (Nurota) va Dizak (Jizzax)ga, bu erdan esa Zomin, Xovos orqali bir tomonidan – shimolda Shosh va O'trorga, ikkinchi tomonidan esa shimoli-sharqdan Xo'jand va Farg'ona vodiysiga olib boruvchi yo'llar har bir vohadan o'tar ekan, qishloqlar "zanjiri"dan orqali o'tgan[14]. Ya'ni har bir qishloq orasida bir-biriga bog'lovchi yo'llar bo'lib, yo'llar bo'ylab "rabot" – maxsus qo'rg'on (karvon yo'llarida yo'lovchilarining oziq-ovqat, ot-ulov va hokazo kabi zaruriy ehtiyojlarini qondirish uchun qurilgan, qo'riqlanadigan istehkom)lar joylashgan edi. Abu Bakr an-Narshaxiyining "Tarixi Buxoro" asarida tilga olinishicha: "Baykandarda Buxoro qishloqlari sonicha, mingdan ortiq rabot bo'lgan. Buning sababi shuki, Baykand katta va yaxshi joy bo'lib, har bir qishloqning aholisi u erda bir rabot qurib unga bir to'da kishilarni joylab qo'yan va ularning nafaqalarini qishloqdan yuborib turgan. Qish fasilda kofirlar (yig'ilib) hujum qiladigan vaqt bo'lganida har bir qishloqdan u joyga ko'p xalq to'planib g'azot qilganlar. (Shunda) har bir qavm o'z rabotiga kelib tushgan"[15].

O'rta Osiyo vohalaridagi rabotlar ba'zan muayyan qishloqlar oralig'ida joylashgan bo'lishi bilan birga, ko'pincha

cho'l va dashlik hududlarda – aholi maskanlari kam yoki umuman bo'limgan joylarda barpo qilingan. Istaxriyning yozishicha: "Yo'lovchi to'xtashi uchun ortig'i bilan rabotlari bo'limgan biror shahar, qo'noqjoy, qishloq yo'q. Eshitishimcha, Movarounnahrda o'n mingdan ortiq rabot bor ekan. Ularning ko'pida yo'lovchi to'xtasa, uloviga emish, o'ziga taom tayyorlab qo'yilgan. Samarqandda yo'lovchi uchun muzdek "yo'l suvi" qo'yilmagan biror xona, yo'l cheti yo devorni deyarli ko'rmadim. Ishonchli kishining aytishicha, Samarqand, uni o'rab turadigan devorida qurilgan suv inshooti va qazilgan quduq orasida ikki mingdan ortiq joyda yo'lovchi uchun muzdek suv qo'yilgan ekan"[16].

Demak, ushbu ma'lumotdan ayon bo'lishicha, mintaqasi aholisi, ayniqsa, qishloqdagi xonadonlar yo'lovchilarining ehtiyoji uchun ichimlik suvi tayyorlab qo'yishgan. Karvonlar ehtiyoji uchun "muzdek suv" saqlanadigan maxsus inshoot – sardobalar barpo etilishidan tashqari yana savdo yo'llari bo'ylab joylashgan shahar, qishloq va hokazo aholi maskanlarida shu maqsadda suv tayyorlab qo'yilishi nafaqat o'sha kezlarda xalqaro savdoning qay darajada rivojlanganini, balki aholining madaniy saviyasi qanchalik yuksak bo'lganini ko'rsatadi.

Qisqasi, ilk va rivojlangan o'rta asrlar O'rta Osiyo mintaqasi qishloqlari tarixi bilan tanishib chiqish shundan darak beradi, bu davrda mintaqadagi o'nlab vohalarning har birida bir necha yuzlab qishloqlar mavjud bo'lib, ularning soni ba'zi hududlarda mingdan oshgan. Mintaqqa ma'muriy hududiy boshqaruvining katta bir qismimi tashkil etgan aholi maskanlari orasida eng ko'pchilikni tashkil etgan qishloqlar o'ziga xos tizimga ega bo'lib, bir tomonidan qo'shni hududlardagi ma'muriy birliklarga o'xshash bo'lgan, boshqa tomonidan esa o'ziga xos jihatlari bilan alohida ajralib turgan. O'rta Osiyo qishloqlarining o'ziga xos xususiyatlari ko'proq ularning paxsa uylardan tashkil topgani, muayyan suv tarmoqlari – daryo, anhor, ariqlarning borligi, aholisining ekin-tikinchilik bilan shug'ullangani, bog'-rog'lar, mevazorlar, sabzovotlar mo'lligi va hokazolarda ko'zga tashlanib turgan.

#### ADABIYOTLAR

1. Бичурин Н.Я. (Иакинф]. Собрание сведений о народах обитавших в Средней Азии в древние времена. В 3-х томах. Том II. – М.-Л., 1950; Малявкин А. Г. Историческая география Центральной Азии (Материалы и исследования). – Новосибирск: Наука, 1981; Хўжаев А. Фарғона тарихига оид маълумотлар: Кадимий ва илк ўрга аср хитой манбаларидан таржималар ва уларга шарҳлар. – Фарғона, 2013; Согдийские документы с горы Муг. Чтение Перевод. Комментарий. Вып. II. Юридические документы и письма / Чтение перевод и комментарий В. А. Лившица. М. 1962; Материалы по истории кыргызов и Кыргызстана / Отв. редактор В.А. Ромоддин. Бишкек 2002.
2. Ибн Хордадбех. Книга путей и стран/ Перевод с арабского, комментарии, исследование, указатели и карты Наили Велихановой. – Баку: Элм, 1986; Ибн Ҳавқал. Китоб сурат ал-ард – Ернинг сурати китоби. Араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи, тарих фанлари доктори, профессор Ш. С. Камолиддин. – Тошкент, 2011; Истаҳрий. «Китаб ал-масалик вал-мамалик». Йўллар ва ўлкалар китоби. Тадқикот, араб тилидан таржима, изоҳ ва кўрсаткичлар муаллифи Р. Т. Худайберганов. – Тошкент: Фан, 2019.
3. Истаҳрий. Китаб ал-мамалик вал-масалик. Хурросон ва Моваруоннахр. – Б. 180-181.
4. Хўжаев А. Фарғона тарихига оид маълумотлар: Кадимий ва илк ўрга аср хитой манбаларидан таржималар ва уларга шарҳлар. – Б. 34.
5. Шониёзов К.Ш. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 192-193.
6. Истаҳрий. Китаб ал-мамалик вал-масалик. Хурросон ва Моваруоннахр. – Б. 262.
7. Шониёзов К.Ш. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Б. 192-193.
8. Истаҳрий. Китаб ал-мамалик вал-масалик. Хурросон ва Моваруоннахр. – Б. 181.
9. Ибн Ҳавқал. Китоб сурат ал-ард – Ернинг сурати китоби. Араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи, тарих фанлари доктори, профессор Ш. С. Камолиддин. – Тошкент, 2011. – Б. 76-77.
10. Истаҳрий. Китаб ал-мамалик вал-масалик. Хурросон ва Моваруоннахр. – Б. 171.
11. Истаҳрий. Китаб ал-мамалик вал-масалик. Хурросон ва Моваруоннахр. – Б. 172.
12. Ибн Ҳавқал. Китоб сурат ал-ард – Ернинг сурати китоби. – Б. 77.
13. Ибн Ҳавқал. Китоб сурат ал-ард – Ернинг сурати китоби. – Б. 75.
14. Ибн Хордадбех. Книга путей и стран / Перевод с арабского, комментарии, исследование, указатели и карты Наили Велихановой. – Баку: Элм, 1986. – С. 64-66.
15. Абу Бакр Мухаммад ибн Жаъфар ан-Наршахий. Бухоро тарихи. Форс тилидан А. Расулов таржимаси. – Б. 12.
16. Истаҳрий. Китаб ал-мамалик вал-масалик. Хурросон ва Моваруоннахр. – Б. 130.



**Behruz SAYFULLAYEV,**

Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti dotsenti v.b., PhD

E-mail: sayfullayev.behruz@gmail.com

TDPU dotsenti, Sh. Bobojonov taqrizi asosida

## UZBEKISTAN - INDIA: COOPERATION IN TOURISM

### Annotation

It is known that tourism plays a key role in strengthening friendship between countries, promoting the traditions, customs and ancient historical cultures of peoples. This article analyzes the history, current state and development prospects of relations in the field of tourism between 1991-2023 as one of the important structural branches of cultural and humanitarian relations between Uzbekistan and India.

**Key words:** Uzbekistan, India, tourism, travel companies, tourism ambassador, Pilgrimage tourism, Cultural tourism.

## УЗБЕКИСТАН - ИНДИЯ: СОТРУДНИЧЕСТВО В СФЕРЕ ТУРИЗМА

### Аннотация

Известно, что туризм играет ключевую роль в укреплении дружбы между странами, пропаганде традиций, обычаями и древней исторической культуры народов. В данной статье анализируются история, современное состояние и перспективы развития отношений в сфере туризма в период 1991-2023 гг. как одной из важных структурных отраслей культурно-гуманитарных связей между Узбекистаном и Индией.

**Ключевые слова:** Узбекистан, Индия, туризм, туристические компании, посол туризма, паломнический туризм, культурный туризм.

## O'ZBEKISTON- HINDISTON:TURIZM YO'LIDA HAMKORLIK

### Annotatsiya

Ma'lumki, davlatlar o'rtasidagi do'stlik rishtalarini mustahkamlashda, xalqlarning an'ana, urf-odatlarini va ko'hna tarixiy madaniyatlarini tanitishda turizm asosiy o'rinni egallaydi. Mazkur maqolada O'zbekiston-Hindiston o'rtasidagi madaniy-gumanitar munosabatlarning muhim tarkibiy tarmoqlaridan biri sifatida turizm sohasidagi aloqalarning 1991-2023 yillar oraliq'idagi tarixi, bugungi holati va rivojlanish istiqbollari tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston, Hindiston, turizm, sayyoqlik kompaniyalar, turizm elchisi, Ziyorat turizmi, Madaniy turizm.

**Kirish.** Turizm barcha davatlarning ijtimoiy, madaniy, ta'lif va iqtisodiy sohalari, shuningdek, xalqaro iqtisodiy munosabatlarga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi faoliyat turi hisoblanadi. Yangi O'zbekistonda turizm iqtisodiyotning strategik tarmog'i sifatida belgilanib, ushu sohada 2016-yildan boshlab keng formatdagi islohotlar amalga oshirildi. Ma'lumki, davlatlar o'rtasidagi do'stlik rishtalarini mustahkamlashda, xalqlarning an'ana, urf-odatlarini va ko'hna tarixiy madaniyatlarini tanitishda turizm asosiy o'rinni egallaydi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Jumladan, Turizmni rivojlantirish maqsadida davlat rahbari tomonidan ko'plab qaror va farmonlar qabul qilindi. 2021-yilning 15-mart holatiga ko'ra, 90 ta xorijiy mamlakat uchun vizasiz rejim tafbiq etildi. 2018-yil 15-iyuldan elektron kirish vizalarini berish tizimi yo'liga qo'yildi va bu tizimdan 57 ta davlat fuqarolari foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldi [1]. Amalga oshirilgan islohotlarning natijasini quyidagi statistik raqamlarda ko'rish mumkin: 2016-yilda O'zbekistonga 1,3 million nafar xorijiy davlat fuqarolari tashrif buyurgan bo'lsa, 2019-yilda bu ko'rsatkich 6,7 milliontaga etdi. Tashriflar sonining oshib borish dinamikasi, o'z navbatida turizm xizmatlar eksportining oshishiga olib keldi. 2016-yilning ko'rsatkichlari bilan taqqoslaganda birgina 2019-yilda turizm xizmatlar eksporti 3 baravarga oshib 1,3 mlrd AQSh dollarin tashkil qildi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** O'zbekiston va Hindiston o'rtasidagi gumanitar aloqalarning muhim tarmoqlaridan biri bu – turizm sohasidagi hamkorlik hisoblanadi. Zeroiki,

O'zbekistonning Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo'qon, Toshkent kabi tarixiy shaharlarining mashhurligi, Hindistonning esa Dehli, Agra, Varanasi, Hampi, Ahmadobod, Madura kabi qadimiy shaharlari, ayniqsa, Agra shahrida joylashgan Tojmahal kabi sayyoqlik markazlarining mavjudligi ikki davlat o'rtasida turizm sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish uchun asos bo'ldi. Jumladan, "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi bilan 2015-yil Hindiston Sayyoqlikni rivojlantirish korporatsiyasi o'rtasida anglashuv Protokoli imzolandi. 2017-yildan ikki davlat o'rtasida tashrif buyuruvchilar uchun elektron vizadan foydalanish joriy qilindi.

**Tahlil va natijalar.** Davlat rahbarining 2018-yilda Hindistonga tashrifi doirasida "O'zbekiston Respublikasi hukumati bilan Hindiston Respublikasi hukumati o'rtasida turizm sohasida hamkorlik to'g'risida" bitim imzolandi. Sharhnomadagi kelishuvga muvofiq Hindiston Respublikasi fuqarolari uchun soddalashtirilgan viza rejimi joriy etildi va Dehlida sayohatchilar uchun zarur ma'lumotlarni taqdim etuvchi illyustrlangan "O'zbekiston sayohatlari bo'yicha qo'llanma" kitobi nashr qilindi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida vaqtinchha bo'lish, undan tranzit o'tish va jo'nab ketishda vizadan ozod etish tartibini joriy etilganligining ikki davlat o'rtasida sayyoqlar oqimini oshishida ijobjiy ta'sir ko'rsatganligi tadqiqot davomida statistik ma'lumotlarni tahlil etish asosida aniqlandi. Jumladan, 2011- yilda Hindistondan O'zbekistonga 11,5 ming, 2017-yilda 16,3 ming fuqarolar tashrif buyurgan bo'lsa, 2018-yilda bu ko'rsatkich 21 ming kishini tashkil etib

29 foizga, 2019-yilda 27 ming 898 kishidan iborat bo'lib, 80 foizga o'sish kuzatildi [2]. Tahlillardan ko'rindik, davlatlar o'tasida tibbiy turizm ham rivojlanib, birgina 2020-yil holatiga ko'ra O'zbekistondan Hindistonga tibbiy muolaja maqsadida boruvchilar soni yillik 8000 tani, ikki davlat o'tasida turli maqsadlarda harakatlanuvchilar soni o'rtacha 40000 tani tashkil qiladi.

Mamlakatlarning an'ana va urf-odatlarini, uzoq yillik tarixiy madaniyatlarini tanitish maqsadida o'tkaziladigan xalqaro festivallar va ko'rgazmalar davlatlar o'tasida turizm sanoatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi asosiy omillardan hisoblanadi. O'zbekistonda 2019-yil 31-oktabr 7-noyabr kunlari Malayziyaning "Umumijahon So'fiylar tashkiloti" tashabbusi bilan "Naqshbandi Tourism Festival 2019" nomli xalqaro forumi tashkil etilib, mazkur tadbirda 18 ta davlatdan, xususan, Hindistondan ham mehmonlar tashrif buyurdi [3].

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, tarixan olib qaraganda XVII asrdan boshlab Hindistonda Naqshbandiya tariqati keng yoyildi. Bu ta'limotning Hindistonda tarqalishiga mutasavvuf olim, Afg'on va Hind yurtlari Xo'ja Boqibullo nomi bilan mashhur bo'lgan Boqiy Kobuliy va uning shogirdi Xo'ja Ahmad Sirhindiyalar hissa qo'shganlar. Bugunga qadar Hindistonda Naqshbandiya tariqati vakillari yashab kelmoqda [4].

Ziyorat dasturi doirasida mehmonlar, Buxoro viloyatidagi "Yetti pir" silsilasidagi muqaddas qadamjolarni, Samarqand shahridagi Hazrati Imom Buxoriy majmuasi, Xoja Ubaydulloh Ahror va Shohi Zinda majmularini, Qarshi va Termiz shaharlaridagi Abul Muin Nasafiy, imom At-Termizi, Hakim Termiziy kabi islom olamining mashhur allomalarining maskanlarni ziyorat qilishdi. Ta'kidlash lozimki, "Hilal Travel" sayyoqlik tashkiloti tomonidan tashkillashtirilgan ziyorat turizmi yo'nalişidagi ushbu xalqaro tadbir O'zbekistonda ziyorat turizmining rivoji va O'zbekistonga xalqaro ziyoratchilar oqimining yanada ko'proq jalb qilinishi yo'lida xizmat qiladi.

Shu bilan birga, Butunjahon turizm tashkiloti bilan hamkorlikda 1995-yildan buyon o'tkazib kelinadigan "Ipak yo'lida turizm" Toshkent xalqaro turistik ko'rgazmasida, Buxoro viloyatida har yili o'tkaziladigan "Ipak va ziravorlar", 2019-yilda birinchi marotaba Qo'qon shahrida o'tkazilgan "Xalqaro xalq amaliy san'ati" festivallarida Hindiston asosiy davlatlar qatorida ishtiroy etib kelmoqda.

O'z navbatida, Hindistonda ham har yili Osiyodagi eng yirik tadbirdaridan biri bu – dunyoning 60 dan ortiq mamlakatlaridan 1,5 mlnga yaqin hunarmandlar ishtiroy etadigan Surajkund Mela xalqaro festivali o'tkaziladi. "Surajkund Mela" – dunyo mamlakatlarining amaliy san'ati namoyish etiladigan pavilonlar yarmarkasi hisoblanib, konsepsiya ko'ra, har yili Hindistonning bir shtati festival mavzusi sifatida, xorijiy davlatlardan biri esa sherik davlat sifatida tanlanadi. Chunonchi, 2020-yilning 1-16-fevral kunlari o'tkazilgan mazkur tadbirda O'zbekiston sherik davlat sifatida tanlandi [5].

Festivalda o'zbek hunarmandlari hamda Buxoro, Samarqand, Xorazm viloyati san'atkorlari va oshpazlari o'z san'atlarini namoyish etdilar. Tadbir doirasida O'zbekistonning gastronomik turizmini keng targ'ib qilish maqsadida "The Societe" restoranida "Uzbek Food Festival" o'zbek milliy taomlari festivali tashkil etildi [6]. Ishtiroychilar festivalda namoyish etilgan o'zbek milliy taomlariga yuqori baho berib, Hindistonda o'zbek oshxonalarini ko'paytirish hamda restoranlar menyusiga o'zbek milliy taomlarini qo'shishga oid takliflar berishdi. Shuningdek, "The Societe" restoran direktori Praven Nayyar o'zbek taomlarini albatta o'z menyusiga kiritishini ma'lum qildi.

Yuqorida ta'kidlangan xalqaro tadbirdar O'zbekiston va Hindiston uchun an'anaviy hunarmandchilik, milliy san'at,

folklor va turistik jozibadorlikka oid imkoniyatlarini keng namoyish qilish imkonini beradi.

So'nggi yillarda mamlakatda sayyoqlik salohiyatini keng targ'ib qilish maqsadida turizm rivojlangan davlatlarda O'zbekistonning turizm elchisini joriy qilish amaliyoti yo'lda qo'yildi. Shunga muvofiq, 2019-yil mart oyida O'zbekistonning Hindistondagi turizm va madaniyat elchisi etib, taniqli hind dizayneri, "Moda malikasi" va "Hindiston modasi biringchi xonimi" deya e'tirof etilgan Ritu Beri tayinlandi [7]. 2019-yilning 5-7-aprel kunlari Dehli shahrida hindistonlik madaniyat arboblari, diplomatik korpus vakillari, atoqli modellar va kinoyulduzlar ishtiroy etgan "The Delhi Times Fashion Weyek-2019" modalar haftaligida Ritu Berining "Farg'ona jozibasi" deb nomlangan maxsus O'zbekistonga bag'ishlangan kolleksiyasini namoyish etildi.

Shuningdek, "Travel+Leisure" etakchi xalqaro turistik jurnalining Hindistondagi vakolatxonasi tomonidan o'tkazilgan "India's Best Awards – 2019" turizm tadbirining "Madaniy-tarixiy meros bo'yicha eng yaxshi turistik yo'nališ" nominatsiyasida O'zbekiston g'olib bo'ldi [8]. Bu kabi tadbirdar O'zbekistonning madaniy salohiyatini keng targ'ib qilish, qolaversa, hindistonlik sayyoohlар oqimining ko'payishiga ham xizmat qiladi.

Dunyoda musulmonlar soni bo'yicha Hindiston 2-o'rinda turib, mamlakat aholisining 14,2 foizi islom diniga e'tiqod qiladi. Hind musulmonlarini O'zbekistonga keng jalb qilish maqsadida 2019-yilning 23-martidan 28-martiga qadar Hindistonning imom va islom dini ulamolari delegatsiyasi O'zbekistonga tashrif buyurdi. Mazkur tashrif doirasida delegatsiya Toshkent, Samarqand, Buxoro shaharlarida bo'lib, hindistonlik ziyoratchilar uchun turistik dasturlar ishlab chiqdilar. Delegatsiyasi tarkibidagi "Holiday Merchants" kompaniyasi direktori Vikas Xanduri O'zbekiston haqida: "Ulkan turistik salohiyat va boy tarixiy-madaniy merosiga ega O'zbekiston jahon sayyoqlik bozorida yetakchi o'rinni egallash uchun barcha imkoniyatlarga ega. 2019-yilning 21-23-fevral kuni Buxoroda bo'lib o'tgan Birinchi xalqaro ziyorat turizmi forumida O'zbekiston ziyorat turizmi markazlaridan biriga aylanishi mumkinligiga ishonch hosil qildim.

Shu bois Hindistonning turli shtatlari uchun O'zbekistonga ziyorat turlari amalga oshirishga doir turistik dasturlari o'z ichiga olgan yangi paketlarni ishlab chiqishga qaror qildik, zeroki, Hindistonda O'zbekistonning muqaddas obidalarini ziyorat qilishni istovchilar ko'p, xususan, Imom Al-Buxoriy, Bahouddin Naqshbandiy, Imom At-Termizi kabi memorial komplekslari hindistonliklarda katta qiziqish uyg'otmoqda" [9] – dedi.

Bugungi kunda Hindistondan O'zbekistonga turistlarni yuborishda Cox & Kings, Anchor Destinations, Samaara Travels, Carnation Holidays, Experiential Travel Journeys, Holiday Merchants kabi sayyoqlik kompaniyalari yetakchilik qilmoqda.

Tadqiqot davomida to'plangan statistik ma'lumotlar tahlilidan ko'rindiki, dunyoda ro'y bergan Covid-19 pandemiyasiga qadar ikki davlat o'tasidagi turizm aloqalarini ijobji ko'rsatkichga ega bo'lib, O'zbekistonga tashrif buyuruvchi sayyoohlар orasida Hindiston fuqarolari yetakchi o'rnlarda turgan. Xususan, birgina 2019-yilning to'qqiz oyi davomida O'zbekistonga 4,9 mln turist kelgan bo'lsa, shundan Hindiston davlatidan kelgan sayyoohlarning soni 22 ming 200 tani tashkil etib, davlatlar orasida 7-o'rinni egallagan. Ammo, 2020-2021-yillarda bevosita Hindistonda pandemiyaning keng tarqalishi turizmga salbiy ta'sir qilib, 2020-yilda 4710 ta, 2021-yilda 10655 nafar sayyoohlarning O'zbekistonga tashrifi kuzatildi.

Tadqiqotda ikki davlat o'tasidagi turizm sohasida mayjud muammolar va kamchiliklar, shuningdek, sohani rivojlantirish istiqbollari to'g'risida quyidagi fikrlarni keltirish mumkin:

Birinchidan, O'zbekistonning Hindistondagi elchixonasi bilan birgalikda respublikaning turizm salohiyati, tarixiy-madaniy yodgorliklari, muqaddas qadamjolari, hayvonot olami, go'zal tog'lar, g'orlar, cho'llar va shaffof toza ko'llar to'g'risida hind davriy matbuot nashrlarida va ommabop jurnallarda keng formatdagi ma'lumotlarni berib borish. Bu kelgisida davlatlar o'tasida Ekoturizm, Yoshlar va Sport turizmini yo'lga qo'yilishiga va mazkur yo'nalishdagi sayyoohlар oqimining ko'payishiga xizmat qiladi. Zeroki, tadqiqot davomida yo'lga kiritilgan ma'lumotlarda taqdим etilgan). Ziyorat turizmi va Madaniy turizm turlari doirasida amalga oshirilganligi kuzatildi.

Ikknchidan, ikki mamlakat gidlari o'tasida mahorat darslari va tajriba almashishni ko'zda tutuvchi O'zbekiston shaharlari bo'ylab info-turlar tashkil qilish kerak. Sababi, Hindiston milliy gidlar federatsiyasi Hindistonda turistik gidlar faoliyatini tartibga solish sohasidagi asosiy tashkilot bo'lib, bugungi kunda federatsiya tarkibida 3700 dan ortiq gidlar faoliyat ko'rsatadi. 2019-yilning 21- fevralida "III Xalqaro gidlar forumi"da O'zbekiston va Hindiston gidlar assotsiatsiyasi o'tasida hamkorlik to'g'risidagi memorandum imzolandi. 2019- yilning 4-avgustida Toshkentda I Xalqaro O'zbekiston-Hindiston gidlar kongressi bo'lib o'tdi. Mazkur kongressdan ko'zlangan asosiy maqsad turizm va ekskursiya sohasida yangi qo'shma loyihalarni yaratish va amalga

oshirishda malakali gidlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yishdan iborat bo'lgan.

Uchinchidan, O'zbekiston va Hindiston sayyoohlik kompaniyalari o'tasida B2B shaklidagi to'g'ridan-to'g'ri aloqalarni yo'lga qo'yish kerak.

To'rtinchidan, Hindiston davlati fuqarolari uchun ham O'zbekistonda 30 yoki 60 kunlik vizasiz rejimi joriy qilish maqsadga muvofiq.

Beshinchidan, Zahreddin Muhammad Bobur yurti Andijonda, shuningdek, Surxondaryoning buddaviylik dini yodgorliklari saqlanib qolingan Qoratepa, Ayritom, Dalvarzintepa, Fayoztepalarida hind fuqarolari uchun alohida sayohat turlarini ishlab chiqish, shuningdek, O'zbekistonda hind oshxonalar tarmog'ini kengaytirish sohanini rivojlantirishdagi muhim islohotlardan hisoblanadi.

**Xulosa.** O'zbekiston va Hindiston o'tasidagi gumanitar aloqalarning muhim tarmoqlaridan biri bu – turizm sohasidagi hamkorlik hisoblanadi. Shu munosabat bilan, 2015-yili "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi va Hindiston Sayyoohlikni rivojlantirish korporatsiyasi o'tasida anglashuv Protokoli imzolandi. 2017-yildan ikki davlat o'tasida tashrif buyuruvchilar uchun elektron vizadan foydalanan joriy qilindi. Davlat rahbarining 2018-yilda Hindistonga tashrifi doirasida "O'zbekiston Respublikasi hukumati bilan Hindiston Respublikasi hukumati o'tasida turizm sohasida hamkorlik to'g'risida" bitim imzolandi. Ushbu huquqiy-normativ hujjalatlar asosida ikki davlat o'tasidagi hamkorlik aloqalarini yanada rivojlantirish borasida ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

#### ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистонда туризм индустряси жадал суръатларда тараққий этяпти // ҳттпс:// узбек туризм.уз/нсв/виш?ид=1868. Accessed 15.09. 2022.
2. Ўзбекистон Республикаси Туризм ва маданий мерос вазирлигининг Статистика бўлими малумотлари. 2018-2022-йилларда ташриф буюрган чет эллик сайёхлар сони.
3. Ziyorat turizmi: O'zbekistonda «Naqshbandi Tourism Festival 2019» xalqaro tadbiri bo'lib o'tadi // <https://uzbektourism.uz/news/view?id=833>. Accessed 10.11. 2022.
4. Shamsul Hasan. Impact of the Naqshbandi silsilah on indian muslims // Department of Islamic studies Aligarh Muslim University. India, 2010. – P. 13-17.
5. O'zbekiston Osiyoning eng yirik hunarmadchilik festivalida bosh hamkor sifatida ishtirok etmoqda // <https://uzbektourism.uz/news/view?id=989>. 15.11. 2022.
6. Hindistonda "Uzbek Food Festival" o'zbek milliy taomlari festivali ochildi // <https://uzbektourism.uz/news/view?id=1017>. Accessed 20.11. 2022.
7. Mashhur hind dizayneri O'zbekistonning Hindistondagi turizm elchisi etib tayinlandi // <https://oz.sputniknews-uz.com/20190318/Mashur-ind-dizayneri-zbekistonning-indistondagi-turizm-elchisi-etib-tayinlandi-11039527.html>. Accessed 23.11. 2022.
8. India's Best Awards – 2019: O'zbekiston "Madaniy-tarixiy meros bo'yicha eng yaxshi turistik yo'nalish" sifatida e'tirof etildi // <https://uzbektourism.uz/news/view?id=866>. Accessed 15.12. 2022.
9. Ziyorat turizmi: Hindistonning imom va islom ulamolari delegatsiyasi O'zbekistonga tashrif buyurdi // <https://kun.uz/uz-39020390?q=%2F39020390>. Accessed 18.11. 2022.